

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

# GOLDEN BRAIN

*Social Sciences & Humanities*



Volume 2, Issue 19



[webgoldenbrain.com](http://webgoldenbrain.com)

**2024/19**  
**October**

ISSN 2181-4120  
VOLUME 2, ISSUE 19  
OCTOBER 2024



<http://webgoldenbrain.com/>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL**  
**VOLUME 2, ISSUE 19, OCTOBER, 2024**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldashova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

**Editorial Secretary: J. Eshonkulov**

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003704>

## BUGUNGI KUNDA NUTQ BUZILISHI SABABLARI VA ULARNING OLDINI OLISH USULLARI

**Ruzmetova Dilbar Atabayevna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch  
Filiali O‘zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası katta o‘qituvchi.

**Sultanova Iftixor Baxtiyor qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch  
Filiali stomotologiya fakulteti 1-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada nutq haqida umumiy tushuncha, bugungi kunda insonlarda nutq buzilish sabablari, oqibatları hamda ularni davolash chora-tadbirlari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Bundan tashqari qo'shimcha tariqasida insonlarda yuzaga keladigan omma oldida nutq so'zlay olmaslik kabi kamchiliklarni yengish usullari ham berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Nutq, og'zaki nutq, nutq buzilishi, terapiya, foniya, dislaliya, afaziya, disleksiya, dizartriya.*

### ABSTRACT

*This article provides a general understanding of speech, the causes and consequences of speech disorders in people today, as well as their treatment measures. In addition, methods to overcome the shortcomings of people such as the inability to speak in public is also given.*

**Key words:** *Speech, oral speech, speech disorder, therapy, phonia, dyslalia, aphasia, dyslexia, dysarthria.*

Nutq — insonning fikrlarini, his-tuyg'ularini va g'oyalarini ifodalashda qo'llaniladigan kommunikativ jarayon. U so'z orqali amalga oshiriladi va turli xil badiiy, ilmiy, ommaviy va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Nutq o'z ichiga muloqotning turli shakllarini, jumladan, og'zaki va yozma nutqni oladi. Quyida og'zaki nutq haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Og'zaki nutq — bu fikrlarni, his-tuyg'ularni va g'oyalarni og'zaki tarzda ifodalash jarayoni. U odatda muloqotda, taqdimotlarda yoki boshqa ijtimoiy vaziyatlarda qo'llaniladi. Og'zaki nutq turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan, suhbat, munozara, leksiya, taqdimotlar va boshqalar. Og'zaki nutqning asosiy xususiyatlari: Suhbat davomida ovoz balandligi, intonatsiya, ohang va talaffuz muhim rol o'ynaydi. Ular nutqning ta'sirchanligini va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Nutqning ritmi, pauzalari va hajmi tinglovchini jalb qilishda va uning e'tiborini saqlashda joziba yaratadi. Og'zaki nutqda fikrlarni aniqlik bilan va ravshan ifodalash juda muhim. Odamlar orasida ba'zan to'liq tushunmaslik yoki chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin, shuning uchun nutqni aniq va lo'nda qilib aytish muhimdir. Ushbu nutq turi ko'pincha ko'p vaqt olmaydi, shuning uchun fikrlarni qisqa va qiziqarli tarzda bayon etish zarur. Tinglovchilar o'zaro aloqada bo'ladi, shuning uchun og'zaki nutqda ularga savollar berish, fikrlarini so'rash va ulardan fikr olish muhimdir.

Og'zaki nutqning bir qancha turlari mavjud:

1. Suhbat: O'rtada erkin muloqot, fikr almashish.
2. Taqdimot: Ma'lumot yoki g'oyalarni taqdim etish uchun tayyorlangan nutq.
3. Munozara: Bir yoki bir nechta o'zaro fikr almashadigan guruhda joylashgan.
4. Dars: Ma'ruza yoki leksiya shaklida ilmiy yoki ta'limiy ma'lumotlarni izohlash.
5. Intervyu: Savollar berish orqali odamlar bilan muloqot qilish.
6. Tanqid: Ba'zi bir fikrlarni yoki asarlarni baholash va muhokama qilish.

Bugungi kunda og'zaki nutqning ahamiyati: Komunikatsiya: Og'zaki nutq insonlar o'rtasida tez va samarali aloqa o'rnatishga yordam beradi. Ijodkorlik: Nutq so'zlovchilar o'z g'oyalarini yaratuvchanlik bilan ifoda etishga imkoniyat yaratadi. Jamiyatda o'rinning rivojlanishi: Og'zaki nutq ijtimoiy muhitda muhim rol

o'ynaydi; u odamlarning fikrlarini, his-tuyg'ularini va g'oyalarini ifodalash, jamiyatda o'zaro aloqani rivojlantirishga yordam beradi.

Afsuski insonlarda nutq faoliyatiga doir bir qancha o'zgarishlar yoki buzilishlar uchrab turadi. Nutq buzilishi — bu nutqning ravonligi, to'g'riligi va aniqligini ta'minlaydigan jarayonlarning qandaydir sabablardan zaiflashishi yoki buzilishi. Nutq buzilishi turli xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin va odamning ijtimoiy, psixologik va emotsional holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutq buzilishi ko'pincha mutaxassislar tomonidan aniqlanadi va davolanishi kerak bo'lgan muammo sifatida ko'riladi. Nutq buzilishining turlari: 1. Bargoza nutq buzilishi (dislaliya): Bu nutqning hech qanday mantiqiy sababi bo'lmasa-da, ba'zi tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi. Masalan, "s" o'rniga "sh" yoki "r" o'rniga "l" aytish. 2. Nutqning ravonligi buzilishi (foniya): - Bu nutqning og'zi bilan chiqarilishi va so'zlarni to'g'ri bog'lay olish qobiliyatining pasayishi. Bunga "tugun" (tugmalik) yoki "kekelek" kabi holatlar kiradi. 3. Nutqni jamlay olmaslik (afaziya): - Bu holat odatda bosh miyasi jarohatlaridan yoki insultlardan kelib chiqadi. Bu holat fuqarolarning fikrlarini ifodalash va tushunishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. 4. O'qish va yozish qiyinchiliklari (disleksiya): - Bu bolalar yoki kattalar uchun o'qish va yozish jarayonida muammolar paydo bo'lishiga olib keladigan buzilishdir. 5. Dizartriya: - Bu nutqning mushaklari va nerv tizimidagi muammolar tufayli kelib chiqadi. Dizartriya nutqning to'g'ri talaffuzini, ritmini va intonatsiyasini ta'sir qiladi. Ushbu buzilishlarga quyidagi sabablar asos qilib ko'rsatilgan.

- Genetik omillar: Ba'zi nutq buzilishlari irsiy xususiyatlar bilan bog'liqdir.

- Fiziologik omillar: Miyaning tuzilishi, muammolar, jarrohlik operatsiyalari yoki boshqa tibbiy muammolar.

- Ruhiiy holat: Stress, tashvish yoki psixologik jarayonlar nutqni buzishi mumkin.

Davolash usullari: 1. Nutq terapevtlari: Nutq buzilishlarini davolashda mutaxassislar sifatida nutq terapevtlari yordam berishi mumkin. Ular individual mashqlar va dasturlar tuzish orqali bemorlarni qo'llab-quvvatlaydilar. 2. Mashqlar va o'qitish: Nutqni rivojlantirishga yordam beradigan mashq va o'qitish jarayoni orqali bemorlar

o‘z nutqini yanada ravonroq qilishlari mumkin.3. Psixologik yordam: Psixologlar orqali ruhiy holatni yaxshilash va stressni kamaytirishga yordam beradigan terapiya usullari qo‘llanilishi mumkin.

Nutq buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday muammo vaqtida mutaxassislarga murojaat qilishni talab qiladi, chunki erta aniqlagan taqdirda davolash samaradorligi yanada yuqori bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari insonlarda jamoat oldida nutq so‘zlay olmaslik holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlarda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan: nutqizngizni oldindan rejalashtirib olish, eng yuqori natija uchun harakat qilish, oila a‘zolari yoki do‘stlar davrasida mashq qilish, nutqni hech qachon ko‘r-ko‘rona yodlab olmaslik, juda tez gapirishdan qochish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda professional hayotning eng muhim omillaridan biri-bu nutqiy salohiyatni oshirishdir. Insonning nutqi qanchalik ravon va chiroyli bo‘lsa, uning muvaffaqiyatga erishish ko‘rsatkichlari ham oshadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
2. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov. "Nutq ma’daniyati va notiqlik san’ati" Toshkent-2015.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003721>

## QADIMGI TURKIY TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI

**Ikhbol Shamsudinova**

**Eshdavlatova Lolaxon**

**Ko‘charova Nilufar**

Termiz davlat universiteti talabalari.

*Annotatsiya: Maqolada qadimgi turkiy tillarning morfologiyasi, grammatik kategoriyalari, agglyutinativ tabiati, hozirgi o‘zbek adabiy tilidan farqli jihatlari tasnif qilingan.*

*Tayanch so‘zlar: Morfologiya, ot, fe‘l, ravish, so‘z turkum, olmosh, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, agglyutinativ, zamon, turk-mo‘g‘il-tangus, tillarning chatishuvi, oltay nazariyasi.*

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatdan agglyutinativ tildir. So‘z formalari so‘zning negiziga maxsus qo‘shimchalarni muayyan tartibda qo‘shish yo‘li bilan yasaladigan tillarga agglyutinativ til deb ataladi. Ammo qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o‘zbek adabiy tili va singormanizmni yo‘qotgan shevalardan singarmonistik variantlarning borligi bilan farqlanadi. Lekin bu sof morfologik farq bo‘lmay, fonetik farqdir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy tildagiga nisbatan miqdoran ko‘p va mazmunan boy
2. Hozirgi o‘zbek tilida yo‘q bo‘lgan yoki alohida element sifatida o‘qilmaydigan morfemalar ham bor
3. So‘z va forma yasovchi chet tili morfemalari yo‘q



#### 4. Murakkab morfemalar juda kam

Turkiy tillardagi qadimiy morfologik shakllar tahlil qilinganda oltoy nazariyasidagi fikrlar, ma'lum ma'noda, asoslangandek bo'ladi. Turk-mo'g'ul-tungus aloqalari morfologiyani hamma bo'limlarida ko'rinadi. Bu uch guruhga mansub tillar uchun umumiy bo'lgan morfologik ko'rsatkichlar to'liq aniqlangan emas (ayrim turkiy tillarda hozirgi kelasi zamon sifatdoshi, mo'g'ul tillaridagi ravishdosh, tungus-manchjur tilidagi hozirgi zamon sifatdoshi affikslari hamda o'rin va yo'nalish bildiruvchi **-ra**, **-ru** qo'shimchalarini hisobga olmaganda).

Qadimgi turk va mo'g'ul tillaridagi morfologik munosobatlarning o'xshash va farqli tomonlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: Turk-mo'g'ul tillari uchun umumiy bo'lgan morfologik ko'rsatkich sifatida o'rin kelishigi **-da**, jo'nalish kelishigi **-a**, harakat nomi **-ku**, shaxs oti **-chi**, o'rin-joy belgisini bildiruvchi **-daki**, ot yasovchi **-m**, **-vul**, fe'l yasovchi **-la** qo'shimchalari xarakterlidir.

Sifat darajalarining qadimgi turkiy tildagi *up-urun* (oppoq), *kop-kok* (ko'm-ko'k), *sum-sucug* (juda shirin), *qap-qara* (nihoyatda qora) shakllari **mo'g'ul** tilidagi *sav-sayan* (oppoq), *ib-ilayan* (qip-qizil), *koa-koke* (ko'm -ko'k); **buryatcha** *dav-daxap* (oppoq), *iv-ilan* (qip-qizil), *xav-xara* (qop-qora) shakllariga mos keladi.

Turkiy tillarda ham mo'g'ul tillarida ham **alip kordi**, **ahp ketti**, **jazip bardi** kabi ko'makchi fe'lli so'z qo'shimchalari uchraydi. Turkiy va mo'g'ul tillari o'rtasidagi moslikni **qirg'iz**, **tuva**, **yoqut** tillariga oid quyidagi faktik misollar orqali ko'rish mumkin. Oltoy tillari qarindoshligiga oid fikrlar quyidagicha umumlashtirilgan:

1. **Turkiy-mo'g'ul-tungus-manchjur** tillaridagi aloqadorlik morfologiyani barcha bo'limlarida kuzatiladi: masalan, **-(i)d** ko'plik qo'shimchasi: *torin* (ot)- *torid* (otlar), *valyaqip* (shahar) *valyad* (shaharlar); *noxor* (o'rtoq) - *noxod* (o'rtoqlar); *tuyal* (buzoq)- *tuyad* (buzoqlar) va h.k.

2. Aniq morfologik o'xshashliklar tahlili turk-mo'g'ul-tungus-manchjur tillariga xos qadimiy shakllarni tiklash imkonini beradi. Tillardagi parallelizm morfologik elementlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi natijasida yuzaga kelgan.

Tillarning chatishuvi va o'zaro aloqasida uch nuqtayi nazar farqlanadi:

Birinchi qarash tarafdorlari (**A.Shleyxer, M.Myuller, qisman A.Meye**) bir til tizimining bir qancha tizimlardan iborat ekanligini istisno qilgan holda, tillar chatishuvini inkor etadilar.

Ikkinchi qarash tarafdorlari (**G.Shuxardt, V.Pizani, Dj. Bonfante** va boshqalar) uchun tillar chatishuvi hech qanday to'siq bilmaydigan doimiy va keng ko'lamli jarayon.

Uchinchi qarash tarafdorlari (**I.V.Boduen-de-Kurtene, V.A. Bogoroditskiy, L.V.Sherba, B.Y. Vladimirsov, A.Rosetti**) nisbatan asosli fikrga ega bo'lib, tillar chatishuviga geografik, madaniy yaqinlik, savdo aloqalari, qabila va xalqlarning munosabati asosida yuzaga keladigan real tarixiy hodisa deb qarashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qadimgi turkiy til agglyutinativ til bo'lishiga qaramay ba'zi o'rinlarda flektiv til xususiyatlari ham uchraydi. Qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o'zbek adabiy tili va singormanizmni yo'qotgan shevalardan singarmonistik variantlarning borligi bilan farqlanadi. Qadimgi turkiy tillar morfologik xususiyatlari rang-barang bo'lishiga qaramay xalqlarning geografik, savdo aloqalar, madaniy yaqinlik tillar chatishuvlashishi natijasida barcha turkiy tillar morfologiyasida umumiy o'xshash jihatlar uchraydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y.Abdurasulov Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2009.
2. A.Rafiev Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2004- yil
3. Dadaboyev H, Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh ..,2015-yil
4. Is'hoqov M, Sodiqov Q, Omonov Q.Mangu bitiglar - Tosh., 2009-yil.
5. Serebrennikov B, Gadjieva N Sravnitelno- istorocheskaya grammatika tyurkskix yazikov M.,1986-yil

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003734>

**TURKIY TILLAR LEKSIKASI.  
(BIR NECHTA TURKIY TILLAR MISOLIDA)**

**Ikhbol Shamsudinova  
Ravshanova Tursuntosh,  
Abdullayeva Shaxnoza**

TerDU talabalari

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy tillarning leksik xususiyatlari, leksikasida aks etgan soʻzlar talqini beriladi. Maqola davomida bir nechta turkiy tillarga xos leksik jihatlar oʻzaro tahlilga olinadi. Turkiy tillar leksikasida uchraydigan baʼzi soʻzlarning tillar miqyosidagi holatlari koʻrib chiqiladi.*

***Kalit soʻzlar:** turkiy tillar, moʻgʻul tili, leksik qatlam, oʻz qatlam, oʻzlashgan qatlam, adabiy til, arabcha, forsha, tojikcha, xitoycha, ruscha, lugʻat tarkibi va boshqalar.*

Turkiy tillar leksikasi mazkur tilning qaysi dialektlar asosida shakllanganini koʻrsatishi bilan diqqatga sazovor. Shuningdek, maʼlum bir davrga oid nutq xususiyatlari, xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, dunyoqarashi, xullas, insoniyatning moddiy, maishiy va maʼnaviy hayoti bilan bogʻliq hamma jihatlar uning leksikasida aks etadi. Maʼlum asarning leksik qatlami oʻsha davr adabiy til xususiyatlarini, boshqa xalqlar bilan madaniy, siyosiy aloqalarni koʻrsatish uchun hammasining omillardan biri sanaladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tarixi ham ilk bor leksikada aks etadi. Masalan, ayrim olimlar qadimgi turkiy til bilan dunyodagi eng qadimgi til boʻlgan shumer tili oʻrtasidagi qarindoshlik aloqalarini

asoslamoqchi bo'lganlarida ham har ikkala tildagi umumiy leksik qatlam va leksik ma'noga tayanadilar. Shumer- ne, qadimgi turk - na; shuner-me, qadimgi turk- man, ban; shumer-ze, qadimgi turk- San va hokazolar.

Turkiy tillarni bir til oilasiga birlashtiruvchi va boshqa til oilalardan farqlovchi xususiyatlaridan biri leksik tarkibning bir-biriga yaqinligidan hamda grammatik qurilishining mushtarakligidir. Shuning uchun chuvash va yoqut tillaridan boshqa hamma turkiy tillar bir-biriga tushunarlidir. Tildagi barcha so'zlar uning lug'at boyligini tashkil etadi. Tilning lug'at boyligi ikki manba- ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Boshqa tillardan so'z olish natijasida turkiy tillarda ham o'z qatlam va o'zlashgan qatlam farqlanadi. O'z qatlamga turkiy tillarga oid ,shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. Turkiy tillar lug'at tarkibida umumturkiy so'zlar asosiy miqdorni tashkil etadi: tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kishi, bola, oq, qora, qizil, ko'k, sariq, bir, ikki, olti, men, sen, shu, bu, kel, ol, tur,qara,indamay, erta, ilgari kabi. Turkiy tillardagi yunoncha, arabcha, forscha, tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamni tashkil etadi. Turkiy tillardagi o'zlashgan qatlamning asosiy qismi arab, fors-tojik, rus tillaridan kirgan so'zlardan iborat. Ammo qadimgi turkiy til leksikasini faqat o'z qatlam asosida kuzatish mumkin. Qadimgi turkiy tilning o'zlashgan qatlam leksikasini A. Gaben quyidagi guruhlariga bo'ladi.

1. Mo'g'ulcha so'zlar.
2. Xitoycha so'zlar.
3. Qadimgi forscha so'zlar.
4. Qadimgi hindcha so'zlar.

N. Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning lug'aviy qatlamini mavzusi jihatidan o'n ikki guruhga ajratib talqin etadi. Tadqiqotlarda berilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, qadimgi turkiy til taraqqiyotining asosiy bosqichlarida keng iste'molda bo'lgan so'zlarni bir nechta guruhlariga ajratish mumkin. Qadimgi turkiy til lug'at tarkibida mavjud so'zlar o'sha davrda yashagan urug' va qabilalarning barchasiga tegishlidir. Ular turkiy xalqlarning yashash tarzi, mashg'uloti, harbiy - jug'rofiy sharoiti, madaniyati qabilalarning aks ettiruvchi so'z va atamalaridir.

Qarindoshlik atamaları bir nechta turkiy tillar misolida tahlil qilinganida quyidagi o'zgarishlar va o'xshashliklar kuzatiladi. Masalan, ota so'zi turli tillarda turlicha ishlatiladi. O'zbekcha-ota, ozarbayjoncha-ata, oltoycha-ata, qozoqcha-ata, hakasda-ada, badanga, chuvashda-atte, tuvada-apa tarzida uchraydi. Opa so'zi ozarbayjonda-apa, turkchada-apa, hakascha-appa, gagauzcha-uchba tarzida talaffuz qilinadi va qo'llaniladi. Agarda kelin so'zini tahlilga oladigan bo'lsak uning qumiqchada-kelin, tatarchada-delin, no'g'aychada-kilen, uyg'urchada-kin, hakaschada-kinnit, chuvashchada-kiyit, yoqutchada-gelin tarzida ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Ayrim parranda nomlarini tahlil qilganimizda ularning turkiy tillardagi turlicha shakllarini ko'rishimiz mumkin. Turna so'zi Tuva tilida-duruna, ozarbayjoncha-durna, turkcha-turna, qozoqcha-tirna, boshqirdcha-tarna, yoqutchada-turuya tarzida qo'llaniladi. Bundan tashqari tabiat hodisalarini anglatuvchi atamalar ham turkiy tillarda turlicha ifodalanadi. Misol uchun havo so'zini oladigan bo'lsak, mazkur so'z ozarbayjon, boshqird, qoraqalpoq qumiq, tatar, turk, turkman, o'zbek, uyg'ur tillarida hava//havo tarzida, yozuvdagi shakllari ozarbayjon, uyg'ur, tatar tillarida hava, boshqircha esa haya tarzida, qumiqda-gava, turkmanchada-xova, o'zbekchada-havo, qizoqcha, qirg'izcha, no'g'aychada esa ava tarzida qo'llanilishini ko'rish mumkin.

Turkiy tillarda fe'llarning ham qo'llanish holatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularda ham yuz beradigan ba'zi bir o'zgarishlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, bormoq fe'lini oladigan bo'lsak, mazkur fe'l ozarbayjon, boshqird, oltoy, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz tillarida bar tarzida ifodalanadi. Ketmoq fe'li esa ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'ay tillarida ket tarzida, oltoy tilida bar tarzida, boshqird tilida kit tarzida, qumiq tilida get tarzida qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha turkiy tillarning leksik qatlamida qaysidir ma'noda o'xshashliklar mavjud. Tillar leksikasidagi o'zgarishlar ularni talaffuz qilish jarayonidagi ayrim fonetik o'zgarishlar hisobiga o'zgarib boravergan va shu tarzda tillarda saqlanib qolgan. Hozirgi kundagi o'zbek adabiy tili bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ulardagi tafovut deyarli sezilmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Y.Abdurasulov Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2009.
2. A.Rafiev Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2004- yil
3. Dadaboyev H , Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh ..,2015-yil
4. Is'hoqov M, Sodiqov Q, Omonov Q.Mangu bitiglar - Tosh., 2009-yil.
5. Serebrennikov B, Gadjieva N Sravnitelno- istorocheskaya grammatika tyurkskix yazikov M.,1986-yil

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003742>

## TURKIY TILLAR GRAMMATIK QURILISHINING TARIXIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Shamsudinova Iqbol**

*Ilmiy rahbar*

**Fozilova Gulnora**

**Eshmurodova Dilobar**

*TerDu, o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari*

**Annonatsiya:** Ushbu maqolada turkiy tillarning grammatik qurilishi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari misollar bilan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiy tillar, grammatik ma'no, tarixiy-tipologik, to'plam, tasnif.

Turkiy tillar grammatikasi hozirgi o'zbek tilining rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi. Turkiy tillar grammatikasi o'ziga xosdir. Turkiy tillarning go'zalligi va takrorlanmas tilligini, bu tilni o'rgangandan keyingina anglash mumkin. Turkiy tillar, turkiy xalqlarining madaniyati va tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zining noyob grammatik qurilishi va tipologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada turkiy tillarning grammatik tuzilishi, ularning tarixiy rivojlanishi va tipologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Turkiy tillar o'z tarixida bir necha asosiy bosqichlardan o'tgan. Dastlabki bosqichda (V-VIII asrlar) O'rta Osiyoda yashovchi turkiy qabilalar o'rtasidagi aloqalar natijasida turkiy tillar o'ziga xos xususiyatlar va strukturaviy elementlarni shakllantira boshladi. Bu davrda og'zaki adabiyot va qabilalararo aloqalar o'ta muhim ahamiyatga ega edi. X-XII asrlarda turkiy tillar o'zaro ta'sirda bo'lib, musulmon madaniyati va adabiyoti ta'sirida rivojlandi. Bu davrda

turkiy tillarda yozma manbalar, xususan, “Kutadgu bilig” va “Divanu lug‘at at-turk” kabi asarlar paydo bo‘ldi. Bu asarlar orqali turkiy tillarning grammatika va leksikasi rivojlandi. Turkiy tillarda so‘z tartibi odatda SOV (Subyekt-Obyekt-Fel) ko‘rinishida bo‘ladi, bu esa grammatik ma’nolarni aniqlashda qo‘shimchalar va kontekstga bog‘liqdir. Shuningdek, turkiy tillarda kelishiklar tizimi rivojlangan bo‘lib, bu tilning sintaktik va morfologik tuzilishini boyitadi. Misol: O‘zbek tilida “kitob” so‘ziga qo‘shimchalar qo‘shish orqali:

“kitob” (kitob)

“kitobim” (mening kitobim)

“kitoblaring” (sening kitoblaring)

Bu misolda har bir qo‘shimcha so‘zning ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’nolar keltiradi. Turkiy tillarda grammatik ma’no quyidagi usullar orqali ifodalanadi:

1. Elementar morfologik birliklar.
2. Agglyutinatív usulda grammatik ma’no ifodalash bilan birga, fleksiya asosidagi shakllar ham voqealanadi.
3. Fonetik ikkilantirish, leksik urg‘uni o‘zgartirish grammatik ma’noni ifodalashning bir usulidir.
4. O‘zakning takror qo‘llanishi natijasida grammatik ma’no ifodalanadi.
5. Turli so‘z shakllari tarkibida keluvchi morfologik birliklarning o‘zaro aloqasi natijasida analitik shakllar hosil qilinadi.

Turkiy tillar grammatik qurilishi va tipologik xususiyatlari bilan boy bo‘lib, ular o‘z tarixiy rivojlanishi davomida ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Agglutinatív tuzilishi, o‘ziga xos so‘z tartibi va kelishiklar tizimi turkiy tillarning xususiyatlarini tashkil etadi. Kelajakda bu tillarning rivojlanishi va saqlanishi, ularning madaniy merosi va identifikatsiyasini davom ettirish uchun muhim ahamiyatga ega.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. X.A. Dadaboyev, Z.T. Xolmanova “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”. :Toshkent-2015
2. Yo. Abdurasulov, “Turkiy tillarning qiyosiy tarixiy grammatikasi”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2009

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003754>

**O‘RTA OIYODA MATBAA TARIXINING O‘RGANILISHI.  
XIVADAGI BIRINCHI TOSHBOSMA TARIXI**

**Yaqubova Shaxlo Ruslanovna**

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy xodimi

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Turkiston hududida chop etilgan ilk manbalar, Markaziy Osiyoda kitob nashr qilishning paydo bo‘lishi va Xivadagi birinchi toshbosma haqida qisqacha ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Matbaachilik, Husayn Shams, A.B.Yazbedev, Eron, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Ibrohim Sulton, G.N.Chabrov, O.P.Sheglova, R.Mahmudova, M.Rustamov, R.Xolmatov, Otajon Abdolov.*

**A STUDY OF THE HISTORY OF PRINTING IN THE MIDDLE AGE.  
HISTORY OF EARLY LITHOGRAPHY IN KHIVA.**

**ABSTRACT**

*This article provides brief information about the first sources printed in Turkestan, the emergence of book publishing in Central Asia, and the first lithograph in Khiva.*

**Keywords:** *Typography, Husain Shams, A.B. Yazbedev, Iran, Russia, India, China, Ibrahim Sultan, G.N. Chabrov, O.P. Sheglova, R. Mahmudova, M. Rustamov, R. Kholmatov, Otajon Abdolov.*

XIX asr ikkinchi yarimida Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni istilo qilishi bu hududdagi musulmon jamiyatining rus va u orqali G'arb madaniyati bilan to'qnashuviga olib keldi. Bu jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini keskin o'zgartirishi tabiiy edi.

Toshbosma kitoblar yordamida Turkiston hududida chop etilgan ilk manbalarni aniqlash va ular yordamida Rossiya imperiyasining madaniy va diniy siyosatini tadqiq etish mumkin.

Bu yo'nalishda bir necha tadqiqotlar olib borilgan. Xronologik tartibda oladigan bo'lsak, Markaziy Osiyoda milliy kitobchilik tarixi bilan birinchi bo'lib shug'ullangan olimlardan biri Husayn Shamsdir. U o'zbek tilida "Matbaachilik va uning qisqacha tarixi" risolasini yozgan.

Markaziy Osiyoda kitob nashr qilishning toshbosma usuli tanlanishining o'z sabablari bor. Gap shundaki, odatda har qanday jamiyatda kitobat ishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarga yangiliklar birdaniga kirib kelavermaydi. Har qanday sivilizatsiyada kitobat shakllari va usullarining almashishi og'ir kechadi. Markaziy Osiyo va unga qo'shni mintaqalarda kitob chop qilish G'arb mamlakatlariga nisbatan tarixan kech paydo bo'lgani bunga yaqqol misoldir. Buning qator obyektiv va subyektiv sabablari mavjud edi. Avvalo, ikki ming yillik davr mobaynida tanho hukmronlik qilgan nusxa ko'chirish, ya'ni qo'lyozma usulini, ikkinchidan, xattotlik san'ati hunarmandlikining kuchli an'analarga asoslanganini aytib o'tish lozim. Jamiyatning texnologik yangiliklardan hadiksirashi, texnik tafakkur darajasi va ijtimoiy ong shakllari ham shunday omillardan edi. Shuningdek, din peshvolarining fan va texnikaga oid ilg'or kashfiyotlarga keskin salbiy munosabati sabab bo'lgan.

Shuningdek, A.B.Yazbedev Xiva toshbosmasi haqida ma'lumot beruvchi bir necha monografiyalar muallifidir. Olim faqat Xiva xonligiga oid asarlar bilan cheklangan. Ularning mavzulari manbashunoslik emas, balki san'atshunoslik jihatidan o'rganilgan. Bu yo'nalishda shuningdek R.Mahmudova, M.Rustamov, va R.Xolmatovlarning ham maqolalari e'lon qilingan. Ular ilmiy-ma'rifiy jamoatchilik va keng kitobxonlar ommasining mazkur davr haqida yangicha tasavvur hosil qilishiga

xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, G.N.Chabrov va O.P.Sheglovaning tadqiqotlarida ushbu mavzuga qisman qo‘l urilgan.

1874-yilda Markaziy Osiyoda, aynan Xivada toshbosma uskunasining ishga tushirilishi olamshumul ahamiyat kasb etgan edi.

Ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san‘at homiysi bo‘lgan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II – Feruz hattotlar ishini yengillashtirish niyatida o‘zining eng ishonchli kishilari yordamida Eron, Rossiya, Hindiston va Xitoydagi toshbosmalarning faoliyatini puxta o‘rganadi. 1866-yilda Tehronda o‘nta bosmaxona ish olib borayotganidan voqif bo‘lgan xon Xivada ham ana shunday toshbosma ochishga astoydil kirishadi. 1874-yilda xonning buyrug‘iga asosan kitob chop etish uchun Shveysariyaning Jeneva shahrida ishlab chiqarilgan dastgohlar Xivaga keltiriladi.

Xon toshbosmada yaxshi ishlay oladigan mutaxassislarni jalb etish maqsadida Erondan ko‘mak so‘raydi va shartnoma asosida eronlik usta Ibrohim Sulton ishga taklif etiladi. Shu zaylda birinchi toshbosma (litografiya) Xiva xonligida ishga tushiriladi.

Eronlik Ibrohim Sulton o‘ziga munosib, ishonchli bir shogird va hamroh izlaydi. Kasbning mashaqqatli tomonlari ko‘p bo‘lgani uchun unga nafaqat jismonan baquvvat, chaqqon, balki zehni o‘tkir, bir nechta tillarni ham mukammal biladigan shogird zarur edi. Ana shunday munosib shogird Otajon Abdolov bo‘ldi. U fors tilini, arab alifbosini yaxshi bilgani, tabiatan zehni o‘tkir, shuningdek, uquvli va chaqqon bo‘lgani uchun ham ustaga yoqib qoldi.

Ustoz yosh shogirdiga kasb sirlarini puxta o‘rgatadi va qisqa vaqt ichida Otajon toshbosmani o‘zlashtirib oladi. Ibrohim Sulton shogirdi Otajon Abdol o‘g‘li bilan 1874-yilning o‘zida Alisher Navoiyning “Hamsa” asarini va Munis Xorazmiyning “Munis ul-ushshoq” (“Oshiqlar do‘sti”) asarini bosmadan chiqaradi. Ibrohim Sulton bir yil Xivada bo‘lib Otajonga kitob nashr etish sir-sinoatlarini o‘rgatadi va bir yildan so‘ng o‘z yurti – Eronga qaytib ketadi.

Shartnoma muddati tugab, Ibrohim Sulton o‘z yurtiga qaytib ketadi va ustozning ishlarini munosib davom ettirish Otajon Abdolov zimmasiga yuklatiladi. Yosh usta toshbosmaning yana ko‘plab sir-sinoatlarini o‘rganishga harakat qildi va shu sohaning

yetuk mutaxassislari Aleksey Salapov hamda Gustav Shneydellarga shogirdlikka tushadi. Otajon qisqa vaqt ichida toshbosma usulining barcha sirlarini o'rganib, uni san'at darajasiga ko'tarishga erishadi ham. Bora-bora mahalliy xalq o'rtasida Otajon Abdolov "Otajon bosma" nomi bilan mashhur bo'ladi.

1920-yilga qadar Xivada ko'plab kitoblar bosmadan chiqarilgan bo'lsa-da, hali gazeta chop qilinmagan edi. Zero, bu vaqtda Turkistonning boshqa hududlarida toshbosmada gazetalar allaqachon chiqarilib boshlangan edi. Shu yilning o'zida Xivaga yana ko'plab yangi matbaachilik uskunalari, bosmaxona jihozlari, elektromotor va harflar keltiriladi.

Shu yildan e'tiboran Xivadagi toshbosma faoliyatida butkul yangi bir bosqich boshlanadi. Ya'ni gazeta chop etish yo'lga qo'yiladi. Shu yilning 8-mart kuni "Inqilob quyoshi" (hozirgi "Xorazm haqiqati") gazetasining birinchi soni bosmadan chiqadi. 1927-yilda Otajon Abdolov dunyodan o'tadi. Uning bu ezgu ishlarini shogirdlari davom qildiradilar.

Xorazmda matbaachilik sanoatini haqiqiy san'at darajasiga ko'targanlar. Xivadagi bosmaxona 1928-yilning 1-iyulida Urganch shahriga ko'chiriladi. Otajon Abdolovning munosib izdoshlari Xiva, Urganch shaharlari va vohamizning barcha tumanlarida bu xayrli ishni davom ettirdilar. Vohada matbaachilik sanoatini haqiqiy san'at darajasiga ko'targan Otajon Abdolovning shogirdlari Ota Miskinov, Nizomiddin Shamsiddinov, Boybobo Mahmudov, Rahimbergan Xudoyberganov, Sodiq Halimov, Matyoqub Kamolov, Boyjon Otajonov, Rahmonqul Otajonov, Qodir Abdullayev, Matrasul Masharipov singari kishilarning samarali mehnat qilganliklarini alohida ta'kidlash mumkin.

Bugun Otajon Abdolovning izdoshlari – viloyatimizning fidoyi tadbirkor matbaachilari shu sohaning tom ma'nodagi mutaxassislarga, tajribali noshirlariga aylanishgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон. 1997.
2. Ахунджанов Э.А. К истории разветвля книжного дела в Хиве // Общественного науки в Узбекистане. №7-8. – Тошкент, 1997.
3. Бекчон Раҳмон ўғли. Озоднома. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ инв. № 8956.
4. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
5. Лутфиллоҳ ал-Кайдоний. Фикҳи Кайдоний. ЎзР ФА ШИ тошбосмаси, № 10600.
6. Маҳмудова Р. Хива литографик матбаасида босилган асарлар // ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 5. – Тошкент, 1967.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003770>

## HOZIRGI TURKIY TILLARDA KELISHIK KATEGORIYASI (O‘ZBEK, QORAQALPOQ, QOZOQ, QIRG‘IZ TILLARI MISOLIDA)

**Ikhbol Shamsudinova**

**Jo‘rayeva Mehriniso Safar qizi**

**Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi**

TerDU, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

*Annotatsiya:* ushbu maqolada hozirgi turkiy tillarda faol qo‘llaniluvchi kelishiklar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, mulohazalar o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz tillari misolida ochib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* kelishik, kategoriya, bosh kelishik, qaratqich kelishiga, tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi, qiyos.

Ot turkumidagi so‘zning yoki ismlarning kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi *turlanish* deyiladi. Kelishik qo‘shimchalari (egalik qo‘shimchalari bilan bir qatorda) turlovchi qo‘shimcha hisoblanadi. Turkiy tillardagi ism guruhiga oid so‘zlarda yagona tipdagi turlanish tizimi mavjud[1.53]. Qadimgi turkiy tildagi kelishiklar tizimi hozirgi turkiy tillardagi kelishiklar tizimiga nisbatan ham sifat ham miqdor jihatdan farqli ekanligi ko‘zga tashlanadi. Buning dastlabki sababi tarixiy taraqqiyot yo‘li hisoblansa, boshqa bir sababi ba’zi turdagi kelishiklarning grammatik ma’nosi tubdan o‘zgarib ketganligi hamda son jihatdan kamayib ketganligidir.

Turkiy tillar qiyosiy grammatikalarida hozirgi turkiy tillarda 6-8 kelishik mavjudligi haqida gap borsa-da, ayrim til va lahjalarda tushum, qaratqich, jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kelishiklarining bir shaklda qo‘llanilishi, ba’zi tillar, jumladan,

yoqut tilida qaratqich kelishigining umuman qo'llanilmasligini hisobga olib hozirgi turkiy tillarni 5-7 kelishik tizimiga ega deyish mumkin[2.92].

Bosh kelishik - qadimgi turkiy tillarda ham hozirgi turkiy tillarda ham hech qanday ko'rsatkich shakliga ega bo'lmagan, ya'ni nol ko'rsatkichli shakl sifatida e'tirof etiladi.

Qaratqich kelishigi - qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lmagan. Bu ko'rsatkich shakli o'rniga so'zlar qaratuvchi va qaralmishning sintaktik aloqasi asosida bog'langan. Biroq hozirgi turkiy tillarda jumladan, o'zbek tilida qaratqich kelishigi -ning(mening); qoraqalpoq tilida -nin(kunlerinin) - *Qis kunlerinin biri yedi*; qozoq tilida -nin(ozinin) - *ozinin uli bolmapti desedi*; qirg'iz tilida -nin(koyleginin) - *onin koyleginin omirau ag'ituli*; ko'rsatkich shakllarida qo'llaniladi. Ko'rinib turibdiki, uch til, ya'ni qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillarida qaratqich kelishigi bir xil [-nin] tarzda faol qo'llanar ekan. o'zbek tilida esa uning biroz fonetik jihatdan o'zgargan shakli nisbatan faol.

Tushum kelishigi ma'no jihatdan barcha turkiy tillarda bir xil bo'lgan. Uning qadimgi turkiy shakllari i//i hamda ig'//ig' shakllarda bo'lgan. Biroq hozirgi turkiy tillarda uning bu shakllari deyarli faol emas. Hozirda o'zbek tilida tushum kelishigining -ni(kitobni) shakli - *Madina kitobni o'rtog'iga sovg'a qildi*; qoraqalpoq tilida -di(jerdi) shakli - *Jerdi qalin qar qaplag'an*; qozoq tilida -di(angimemdi) - *sonimen angimemdi aqirindap bastay bereyin*; qirg'iz tilida -in(kozin) - *ol kozin baqiraytip asha tusedi* shakllari faol qo'llaniladi. Tadqiqot natijasida, tushum kelishigi qozoq hamda qoraqalpoq tillarida bir xil, ya'ni -di shaklda qo'llanilishi aniqlandi.

Jo'nalish kelishigi hozirgi turkiy tillarda bitta ma'noni, ya'ni harakatning yo'nalish nuqtasini ifodalaydi[2.95]. Jo'nalish kelishigi hozirgi turkiy tillar, xususan o'zbek tilida -ga(uyga); qoraqalpoq tilida -ke(gojekke) - *Aysenemnin gojekke ko'zi tusti*; qozoq tilida -g'a(sazg'a) - *Onin mingen esegi sazg'a batip qaldi*; qirg'iz tilida -g'a(qalag'a) - *bari de qalag'a ketip baradi* shakllari faol tarzda qo'llaniladi. Ushbu kelishik turida ham o'xshash ko'rsatkich shakllari mavjud bo'lib, ular qozoq hamda qirg'iz tillarida namoyon bo'ladi.

O'rin-payt kelishigi harakat sodir bo'lgan o'rin, payt yoki harakat bajarilishiga vosita bo'lgan predmet ma'nosini anglatib keladi[2.97]. Bu kelishik shaklining turli



tillarda turlicha ko‘rinishlarda uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Tadqiqimiz obyektini sifatida olingan hozirgi turkiy tillarda esa o‘rin-payt kelishigining quyidagi ko‘rsatkichlari faol qo‘llaniladi: o‘zbek tilida -da(xonada); qoraqalpoq tilida -te(mektepte) - *mektepte bo‘lg‘an qiziqli waqiyalardi aytisdi*; qozoq tilida -de(omirde) - *bul omirde baylardin palaudan juregi aynig‘an*; qirg‘iz tilida -da(art jag‘inda) - *arbakeshtin art jag‘inda tort-bes jasar bir bala otir*. Ushbu kelishik ko‘rsatkichlaridagi bir xillik o‘zbek tili hamda qirg‘iz tilida kuzatiladi.

Chiqish kelishigi fe‘ldan anglashilgan harakatning boshlanish o‘rni, payti hamda harakatning bajarilish yoki bajarilmasligiga vosita bo‘lgan predmetni anglatadi[2.98]. Hozirgi turkiy tillarda ushbu kelishik shaklining ham turli ko‘rinishli ko‘rsatkichlari faol qo‘llaniladi. Jumladan, o‘zbek tilida -dan(maktabdan); qoraqalpoq tilida -nan(aldinan) - *wolardin aldinan qonsinisi Murat ag‘a shiqti*; qozoq tilida -dan(palaudan) - *bul omirde baylardin palaudan juregi aynig‘an*; qirg‘iz tilida -tan(istiqtan) - *ol istiqdan ebdan qaljirag‘an* kabilar. Tadqiqotimiz davomida chiqish kelishigidagi o‘xshashlik o‘zbek tili va qozoq tilida -dan ko‘rsatkichi vositasida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamog‘imiz joizki, turkiy tillarning materiali kelishik tizimini tarixiy jihatdan ikki ko‘rinishini belgilash imkonini beradi. Dastlabkisi, qadimiyroq bo‘lib turkiy bobotil davriga xos bo‘lsa, keyingisi turkiy tillarning lahja va dialektlarga ajralish va undan keyingi taraqqiyot bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy tillardagi kelishiklar tizimi hozirgi turkiy tillar kelishiklar tizimidan ham sifat, ham miqdor jihatdan tafovutlarni hosil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari qadimda ular anglatgan ma’no jihati boshqa bo‘lsa, hozirda boshqacha shuningdek, qadimgi turkiy tilda kelishiklarning son jihatdan ko‘pligi kishini hayratda qoldirsa, hozirgi turkiy tillarda kelishiklarning avvalgiga nisbatan biroz kamayganligi yoxud fonetik jihatdan o‘zgarishlarga uchraganligi ko‘zga tashlanadi. Biroq shunga qaramasdan qadimgi turkiy tillarda ham, hozirgi turkiy tillarda ham kelishiklar so‘zlarni ma’no-mazmun jihatdan jipslashtirib turuvchi birlik sifatida baholangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dadaboyev H.,Xolmanova Z. Turkit tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent – 2015
2. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, “Fan” nashriyoti. – Toshkent, 2004.
3. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi(o‘quv qo‘llanma). Toshkent – 2004.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003778>

## OZOD SHARAFIDDINOV: YORQIN ISTE'DOD VA SERMAHSUL IJOD

**Tulishova Gulzina Ravshanovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi rivojidadagi o'rni masalasi munaqqidning ilmiy-ijodiy faoliyati hamda sara asarlari misolida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tanqidchi, adabiyotshunos, zabardast tarjimon, yirik jamoat arbobi, mohir ustoz-murabbiy, taniqli publitsist, ma'naviyat, tafakkur, tasavvur.

**Abstract:** The article examines the role of the Hero of Uzbekistan, famous literary critic Ozod Sharafiddinov in the development of modern Uzbek literary studies and criticism, using the example of the critic's scientific and creative work and works.

**Key words:** Critic, literary critic, excellent translator, great public figure, skilled teacher-coach, well-known publicist, spirituality, thinking, imagination.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль Героя Узбекистана, известного литературного критика Озода Шарафиддинова в развитии современного узбекского литературоведения и критики на примере научной и творческой деятельности и творчества критика.

**Ключевые слова:** Критик, литературовед, прекрасный переводчик, крупный общественный деятель, опытный педагог-тренер, известный публицист, духовность, мышление, воображение.

## KIRISH

Har bir xalq va millat tarixida shunday ulug‘ shaxslar bo‘ladiki, ular o‘zining favqulodda ulkan salohiyati, yurtparvarligi, ona-vataniga fidoiyligi va sadoqati bilan, el-yurtiga qilgan yuksak xizmati bilan katta shuhrat qozonadi hamda xalqining faxru g‘ururiga aylanadi. Atoqli tanqidchi va adabiyotshunos, zabardast tarjimon, yirik jamoat arbobi, mohir ustoz-murabbiy, taniqli publitsist, “Oltin qalam” mukofoti sovrindori Ozod Sharafiddinov ana shunday buyuk siymolarimizdan biri edi. XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, xalqimiz ma’naviyati hamda tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Adabiyotimiz tarixi o‘zanidan turib yaqin yuz yillikka nazar tashlasak, juda ko‘p sonli qalamkashlarning ijodlariga ko‘zimiz tushadi. Ulardan hech birining xizmatlarini kamsitmagan holda aytish mumkinki, keyingi ellik yil ichida faoliyat ko‘rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho‘qqi yanglig‘ ko‘zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o‘zidan o‘lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g‘ururi bo‘la oladigan ijoddir.”<sup>1</sup> O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning bu samimiy e‘tirofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyish mumkin.

Bu tarixiy haqiqat birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning so‘zlarida ham teran ifodasini topgan edi: “Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o‘zining haqqoniy so‘zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo‘layotgan, tom ma‘nodagi ma‘rifatparvar insondir”.<sup>2</sup> Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov tanqidchi o‘z iste‘dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda hamda badiiy ijod olamini boyitish va rivojlantirishda qanchalar muhim rol o‘ynashi va qudratli ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini har jihatdan yaqqol isbotlab bera oldi. “Mudom muttasil fikrlab, fikrlaganda ham mustaqil mulohaza yuritib yashash ustozning bosh

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Yuksakka chorlovchi e‘tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2007-yil 3-b.

<sup>2</sup> Karimov I. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008-yil 84-b.

hayotiy shiorlaridan bo‘lgan... hayotga doimo talabchanlik bilan yondashuv, tiyiqsiz qiziquvchanlik, har ish, har bobda asl mohiyat sari intilish hissi umrining so‘nggi daqiqalarigacha ustozni tark etmaganligi ham barchamizga ibratli”. (Erkin A‘zam)

### NATIJALAR

Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, xalqimiz ma‘naviyati hamda tafakkuri rivojini to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Ulug‘ adiblar ijodi kabi Ozod Sharafiddinovning ham adabiy-tanqidiy va ijodiy merosi bag‘oyat boy hamda ko‘lamdor, ayni vaqtda, mavzu yo‘nalishi xilma-xil, janr va shakl jihatidan ham rang-barangdir. “Buyuklikka qolip yo‘q” deyishadi. Bu muxtasar tashbeh-ibora Ozod Sharafiddinovning shaxsi va ijodiga nisbatan ham munosib bir ta‘rif bo‘la oladi.

Ozod Sharfiddinovlar avlodi ham shonli va mashaqqatli ijod yo‘llarini bosib o‘tdi. Sho‘rolar zamonida ijodkorlarning o‘rni, mavqeyi ularning iste‘dodi va ijodining yuksakligi bilan emas, balki partiyaga nechog‘lik sodiqligiga qarab belgilanar, partiya qarorlariga munosabatiga ko‘ra mukofotu yorliqlar bilan taqdirlanardi. Ya‘ni u tuzumda ijodkor iste‘dodi haqqoniy baholanmagan. Ana shunday g‘ayrioddiy qonun-qoidalar asosiga qurilgan g‘addor tuzumga qarshi chiqa olgan insonlardan biri ulug‘ yozuvchi Abdulla Qahhor bo‘lgan bo‘lsa, yana biri esa tanqidchi-adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov bo‘lganligi ko‘plab zamondoshlar va etuk shogirdlar tomonidan haqli ravishda ta‘kidlanadi va samimiyat bilan xotirlanadi.<sup>1</sup>

Ozod Sharafiddinov shaxsi va ijodini yaqindan bilgan va u kishini o‘ziga ustoz deb, doim e‘zozlab kelgan hassos shoirimiz O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning ta‘kidlashicha, ozodlik ruhi faqatgina yangi avlod ijodidagina emas, balki XX asrning o‘ttizinchi yillaridayoq ustoz adib Abdulla Qahhor erkin ijod uchun va adabiyotdagi soxtalikka qarshi kurashning oldingi qatorida turgan. Ulug‘ yozuvchining o‘tkir publitsistik maqolalari, badiiy ijod haqidagi achchiq va iztirobli so‘zlari mafkuraviy mutelik, fikriy torlik hukm surayotgan muhitni larzaga solgan edi. Erkin

<sup>1</sup> Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2007-yil 302-bet.

Vohidovning maqolalari va xotira-essellarida Abdulla Qahhor hamda Ozod Sharafiddinovlarga bo‘lgan ibratomiz munosabati, minnatdorchiligi davr haqiqatini ifoda etgani bilan ham qimmatlidir. “XX asr o‘zbek adabiy muhitida o‘z ibratli shaxsiyati, mustahkam e’tiqodu dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo‘lib tanilgan alloma Ozod Sharafiddinov mening nafaqat shoir, balki inson sifatida shakllanishimga katta ta’sir ko‘rsatgan chin ma’nodagi ustoz edi” – deya e’tirof etadi. Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov o‘tgan asr adabiyoti hamda adabiyotshunosligi taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan buyuk o‘zbek mutafakkirlaridan biri edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Olimning XX asr yangi o‘zbek adabiyotining mustabid tuzum siyosatining tazyiq – tahdidlari tufayli toptalgan tarixini tiklash, qatag‘on qilingan Fitrat, Cho‘lpon, Otajon Hoshim kabi jadidlar merosini xalqqa qaytarish yo‘lidagi jonbozliklari bilan birga Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad singari nohaq jabrlangan adiblar ijodini chuqur yoritishi ham ilmiy-ijodiy jasoratning bir namunasi bo‘la oladi. Mustabid tuzum sharoitida bunday kurash va shijoat oqibati qanchalar noxush va xavfli bo‘lganini hozirgi yoshlar yaxshi bilmasliklari mumkin. Shu bois og‘riqli bo‘lsa-da, yaqin tariximiz sahifalariga, tasavvur va tafakkurimizni boyituvchi ana shunday muhim fakt hamda misollarga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keladi.

### MUHOKAMA

Ozod Sharafiddinov ko‘p yillik izlanishlar va ne mashaqqatlar bilan to‘plab, nashrga tayyorlagan va muharriri bo‘lgan “Tirik satrlar” to‘plami ham “xalq dushmanlari”ning, ya’ni jadidlarning she’rlarini tiriltirishga urinish degan siyosiy tamg‘a bilan keskin qoralandi va 1968 yili shunday nodir asar shafqatsizlarcha yoqib yuborildi.

Ozod Sharafiddinov boshidan kechirgan nohaqlik va ruhiy iztiroblarni ko‘rsatuvchi mudhish tarixiy voqealardan yana birini keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. O‘nlab iste’dodli ijodkorlarga ustoz bo‘lgan haqgo‘y adib Abdulla Qahhorning “Yoshlar bilan suhbat” nomli nodir asariga ham Ozod Sharafiddinov muharrirlik qilgan va bu kitob ham o‘sha mash’um davr siyosati oqibatida 1968 yili qatag‘onga

uchradi, olovda yoqildi.<sup>1</sup> O‘z davrida adabiyotimiz va tanqidchiligimiz saviyasini ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etgan va hukmron sovet mafkurasining zo‘ravonlik siyosatiga qarshi bir isyon bo‘lib tuyulgan “Yoshlar bilan suhbat” kitobining ayanchli taqdiridan bugungi yosh kitobxonlarimiz deyarli bexabar deyish mumkin.

Adib vafotidan so‘ng zukko matnshunos va tarjimon Kibriyo Qahhorova hamda Ozod Sharafiddinov va Matyoqub Qo‘shjonovlarning sa‘y-harakati bilan 1968 yili chop etilgan<sup>2</sup> bu noyob kitobning qayta nashri bugun ham ijtimoiy adolatning yorqin bir dalili va unutilmas sabog‘i bo‘la oladi. Ushbu kitobning o‘tda yoqib yuborilishi, ya‘ni sovetlar tuzumida ko‘p takrorlangan jaholatning chirkin namoyishi bo‘lgan bu qabohat sababi haqida Ozod Sharafiddinovning so‘nggi kitobi – “Ijodni anglash baxti” (2004) nomli asarida ta‘sirchan xotiralar bitilgan. Ozod Sharafiddinov va boshqa ziyolilar guvohlik berishlaricha, 1967-yil 17- sentyabrda Alisher Navoiy nomidagi teatrda Abdulla Qahhorning 60 yillik yubileyi nishonlanadi. O‘sha anjumanda Abdulla Qahhorning qisqa nutqi kutilmagan darajada kuchli ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan. Ya‘ni adibning “Men partiyaning soldati emas, ongli a‘zosiman!” degan so‘zlaridan zalda go‘yo bir bomba portlaganday bo‘ladi. Bu so‘zlar qisqa fursatda Moskvaga – Kompartiyaning Markaziy Komitetiga va boshqa sovet organlariga etib borgan. Bu davrda barcha sovet adiblari “butun qalbimiz jonajon partiyamizniki” degan Mixail Sholoxov kabi o‘zlarini “partiyaning soldati” deb hisoblashar edi. Abdulla Qahhor esa o‘sha nutqida inson erkini, inson aqlini himoya qilib chiqqan va inson ustidan zo‘ravonlik qilishga qarshi norozilik bildirgan. Abdulla Qahhor bu nutqidan keyin umrining oxirigacha va vafotidan keyin ham anchagacha ta‘na-dashnomlardan qutulmagan.

## XULOSA

Munaqqid asarlari chuqur bilimi, tadqiqotchilik mahorati va xolisona ilmiy pozitsiyasi tufayli erishgan jiddiy bir yutug‘i sanaladi. Ularda butun ijodi bir-biriga hamohang bo‘lgan atoqli va yetuk adiblarimizning sermazmun hayot yo‘li, unutilmas

<sup>1</sup> Vohidov Erkin. Ustoz siyratiga chizgilar. Asarlar. Oltinchi jild. –T.: Sharq, 2018-yil 280-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Qahhor Yoshlar bilan suhbat. –T.: Yosh gvardiya, 1968-yil.

Komanda foul: Agar bir jamoa chorak davomida 5 ta yoki undan ko'p foul qilsa, raqib jamoa avtomatik ravishda jarima zarbasini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Ballarni hisoblash:

Ikki va uch ochkolik zarbalar: 6,75 metrlik chiziqdan uzoqda amalga oshirilgan zarba uch ochkolik hisoblanadi, chiziq ichida esa ikki ochkolik. Ushbu qoida o'yinda strategik zarbalarni ahamiyatini oshiradi.

### **Tahlil va muhokama.**

Basketbol o'yin qoidalari o'yinning tezkor va dinamik bo'lishiga yordam beradi. Shot clock qoidasining kiritilishi hujum jarayonlarini tezlashtirdi va o'yinni yanada jozibador qildi. Shuningdek, foul qoidalari o'yinchilarni himoyada ehtiyotkor bo'lishga undaydi, bu esa o'yinni yanada texnikaviy qilib qo'ydi. Shaxsiy foul qoidasi o'yinchilarga to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik yuklaydi va ularni himoyada yaxshiroq o'ynashga majbur qiladi.

Vaqt va maydon qoidalari o'yinni aniq va adolatli tashkil qilishga yordam beradi, bu esa jamoalar o'rtasida raqobatni mustahkamlaydi. Jamoalar hujum va himoyada tezkor qarorlar qabul qilishi va o'yin dinamikasini saqlab turishi talab etiladi.

### **Xulosa.**

Basketbolning asosiy qoidalari jamoaviy o'yinlar uchun asos yaratadi va o'yinning tezligi hamda adolatli raqobatini ta'minlaydi. Foul, vaqtda cheklov va ballar hisoblash qoidalari o'yinni jozibador va raqobatbardosh qiladi. Zamonaviy basketbol taktik va texnik tomondan jiddiy rivojlanishni boshdan kechirmoqda, bunda qoidalarning to'g'ri qo'llanilishi jamoa muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Basketbol qoidalari o'yinchilarni tartibda ushlab turish bilan birga, o'yinning jozibadorligini oshiradi va strategik elementlarni ta'kidlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Faxriddin Xo‘jayev “Basketbol” uslubiy qo‘llanma Tafakkur nashiryoti toshkent 2015-yil.
2. Shamuratova, B., Shamuratov, U., & Shamuratova, P. (2022). YOSH BASKETBOLCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI VA ESTAFETALI O‘YINLARNING O‘RNI. Academic research in educational sciences, 3(2), 664-668.
3. Botirovich, X. S. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 26-30.
4. Asror o‘g‘li, A. O. (2024). RAQAMLI MUHITDA INKLYUZIV TA’LIM. ALOHIDA TA’LIMGAMUHTOJ TALABALAR UCHUN IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR. Modern education and development, 11(3), 173-179.
5. Asror o‘g‘li, A. O., & Hamza o‘g‘li, M. O. (2024). ONLAYN TA’LIM O‘QITUVCHILARNI BAHOLASHDA KASBIY FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA: ELEKTRON KURSLARDAN, MOOCLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. Modern education and development, 11(3), 166-172.
6. Botirovich, X. S. (2024). RAQAMLI MUHITDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA MODELLARI. Modern education and development, 11(3), 155-161.
7. Iskandar o‘g‘li, S. B., & Hamza o‘g‘li, M. O. (2024). TA’LIMNING TURLI DARAJALARIDA ONLAYN TA’LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI. Modern education and development, 11(3), 133-140.
8. Botirovich, X. S., Murodullo o‘g‘li, J. O. T., & Iskandar o‘g‘li, S. B. (2024). PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. Modern education and development, 11(3), 120-126.

9. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Экономика и социум, (2 (117)-1), 69-73.

10. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. Modern Science and Research, 3(5), 191-195.

11. Iskandar o'g'li, S. B. (2024). VIRTUAL O'YINLARNING YOSHLAR ONGGIGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 31-35.

12. Sa'dullayev, A., Abdurazzoqov, S., & Asadullayeva, M. (2024). MARKETING OF SOCIAL NETWORKS IN THE MODERN WORLD ROLE IN THE FIELD. Talqin va tadqiqotlar.

13. Botirovich, X. S., & Iskandar o'g'li, S. B. (2024). PERFORM ADDITION AND MULTIPLICATION OPERATIONS IN EXCEL. GOLDEN BRAIN, 2(16), 42-46.

14. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). Talqin va tadqiqotlar, (28).

15. S.M.Sidikov, I.To'xtanazarov, D.R.Norqulov, I.Ismoilov. "Basketbol". Farg'ona – 2015.

16. Bozarov Farkhod Samadovich, . (2023). FUNDAMENTALS OF COMPUTER-AIDED DESIGN CONSTRUCTION OBJECTS. American Journal Of Applied Science And Technology, 3(07), 13–18. <https://doi.org/10.37547/ajast/Volume03Issue07-04>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004797>

## BASKETBOLDA O'YIN TAKTIKASI

**Amirkulov Otabek Ismoilovich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM katta o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada professional basketbolchilar o'rganishlari kerak bo'lgan Basketbol o'yinining taktikalari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar.** basketbol, hujum taktikasi, himoya taktikasi, Pick-and-roll, zona himoyasi, man-to-man.*

## ТАКТИКА ИГРЫ В БАСКЕТБОЛЕ

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье представлена информация о тактике игры в баскетбол, которую должны освоить профессиональные баскетболисты.*

***Ключевые слова:** баскетбол, наступательная тактика, защитная тактика, пик-н-ролл, зонная защита, личный контакт.*

## GAME TACTICS IN BASKETBALL

### ANNOTATION

*This article provides information about the tactics of the basketball game that professional basketball players should learn.*

***Keywords:** basketball, offensive tactics, defensive tactics, Pick-and-roll, zone defense, man-to-man.*



## **Kirish.**

Basketbol jahon bo'ylab mashhur sport turi bo'lib, o'yinchilar mahorati va jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda murakkab taktikalardan foydalanishni talab qiladi. O'yin davomida jamoaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan hujum va himoya taktikasiga bog'liqdir. Ushbu maqolada basketbolda o'yin taktikasining asosiy turlari, ularning rivojlanish tarixi va hozirgi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Taktika deb muayyan texnik xususiyatga ega vaziyat talablariga javob beruvchi (raqibni chalg'itish, harakat usuli yoki yo'nalishini o'zgartirish va h) samarali mazmunga ega harakat usulini qo'llash orqali raqobatli musobaqada (baxsda, olishuvda, tanlovda) g'alabaga erishish san'atiga aytiladi. Barcha sport turlari kabi basketbolda ham har bir o'yinga bo'lajak raqib jamoa o'yinchilari imkoniyatlari, ulaming sirasrorlari, o'yin uslubi haqidagi maTumotlami bilgan holda bir necha variantli taktik rejalar tuziladi va real o'yin-vaziyatlariga qarab shu taktik rejalaming eng maqbul (samarali) variantidan foydalaniladi. Strategiya qisqa (bir o'yinga) va uzoq (musobaqa siklari yakunigacha) muddatlarga tuziladigan, o'z tarkibiga jamoani g'alabaga olib boradigan taktik rejalar majmuasini kiritgan loyihani ifodalaydi [1].

## **Materiallar va metodlar.**

Maqolada basketbolda qo'llaniladigan taktikalarning tahlili uchun amaliy kuzatuvlar va professional basketbol jamoalari o'yinlarining video tahlili amalga oshirildi. O'yinlar davomida hujum va himoya usullariga alohida e'tibor berilib, o'yinchilar harakatlari va jamoa sifatida ishlashlari o'rganildi. Maqolada zamonaviy analitik usullar, xususan, basketbol statistikasidan foydalanildi.

## **Natijalar.**

Olingan ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagi asosiy taktikalarning basketbol o'yiniga ta'siri aniqlandi:

### **Hujum taktikalari:**

**Pick-and-roll** — bu usul o'yinchilarga raqib himoyasini buzish imkonini beradi. Kuzatilgan jamoalarda bu taktika o'yinning 35-40% da ishlatilgan.

**Iso (Isolation) taktikasi** — jismoniy kuchli yoki texnik jihatdan ustun o'yinchiga asoslangan yakkama-yakka holat.

#### **Himoya taktikalari:**

**Zona himoyasi** — raqib o'yinchilarni hudud bo'yicha taqsimlash orqali hujumni cheklash taktikasidir. O'yinlarda zonali himoya yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

**Man-to-man** — har bir himoyachi o'ziga tayinlangan o'yinchiga qarshi himoyalanaadi. Bu taktika individual mahoratga ko'proq tayanadi.

#### **Tahlil va muhokama.**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, hujum va himoya taktikalari basketbol jamoalarining o'yindagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. **Pick-and-roll** hujum strategiyasi juda samarali bo'lib, u hujumchilarni erkin joylashishga yordam beradi. Shuningdek, raqibga qarshi individual o'yin uslubini ishlab chiqish uchun **Iso taktikasidan** foydalanish, kuchli individual o'yinchilarga ega jamoalarda muvaffaqiyat keltiradi.

Himoyada esa **zona himoyasi** raqibning tashqi o'yinini cheklaydi, ayniqsa raqib kam kuchli o'yinchilardan iborat bo'lsa. Biroq, **man-to-man** himoya taktikasini kuchli jismoniy tayyorlangan jamoalar afzal ko'radi.

#### **Xulosa.**

Basketbolda o'yin taktikasi murakkab bo'lib, jamoa o'yiniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Hujum va himoya taktikalari to'g'ri tanlanganda, jamoa muvaffaqiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar murabbiylarga va basketbol jamoalariga taktikalarning to'g'ri tanlash bo'yicha yo'nalishlar beradi va zamonaviy basketbolda muvaffaqiyatga erishishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategik yondashuvlar haqida tushunchani kengaytiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. A.A.Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D.T.Xusanova, F.A.Pulatov. Basketbol nazariyasi va uslubiyoti. Toshkent – 2017 y. 349 b.
2. Nurimov R.I .Sovershinstvovanie uchebno-trenirovochnogo protsessa futbolistov.Toshkent-2001.
3. Botirovich, X. S. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 26-30.
4. Asror o‘g‘li, A. O. (2024). RAQAMLI MUHITDA INKLYUZIV TA’LIM. ALOHIDA TA’LIMGAMUHTOJ TALABALAR UCHUN IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR. Modern education and development, 11(3), 173-179.
5. Asror o‘g‘li, A. O., & Hamza o‘g‘li, M. O. (2024). ONLAYN TA’LIM O‘QITUVCHILARNI BAHOLASHDA KASBIY FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA: ELEKTRON KURSLARDAN, MOOCLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. Modern education and development, 11(3), 166-172.
6. Botirovich, X. S. (2024). RAQAMLI MUHITDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA MODELLARI. Modern education and development, 11(3), 155-161.
7. Iskandar o‘g‘li, S. B., & Hamza o‘g‘li, M. O. (2024). TA’LIMNING TURLI DARAJALARIDA ONLAYN TA’LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI. Modern education and development, 11(3), 133-140.
8. Botirovich, X. S., Murodullo o‘g‘li, J. O. T., & Iskandar o‘g‘li, S. B. (2024). PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. Modern education and development, 11(3), 120-126.
9. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Экономика и социум, (2 (117)-1), 69-73.

10. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
11. Madatov, Q. (2024). C++ PROGRAMMING LANGUAGE OPERATOR USAGE AND THEIR TYPES AND MAIN FUNCTIONS. *Models and methods in modern science*, 3(1), 244-254.
12. Madatov, Q. (2024). C# VA .NET CORE PLATFORMASI C# DASTURLASH TILINING OPERATORLARI QO‘LLASH VA ULARNING TURLARI HAMDA ASOSIY VAZIFALARI. *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(1), 59-67.
13. Маматова, Г. (2023). Цифровой университет: стратегия создания умной инфраструктуры в высших учебных заведениях Узбекистана. *Economics and Innovative Technologies*, 11(4), 296-312.
14. Mamatova, G. (2023). OLIY TA‘LIM MUASSALARINING RAQAMLI FAOLIYATI hamda KELAJAK KADRLARINI TAYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR va SUN‘IY INTELEKTNI QO‘LLASH JARAYONLARI. KELAJAK KASBLARI. *Interpretation and researches*, 1(7).
15. Sa‘dullayev, A., Abdurazzoqov, S., & Asadullayeva, M. (2024). MARKETING OF SOCIAL NETWORKS IN THE MODERN WORLD ROLE IN THE FIELD. *Talqin va tadqiqotlar*.
16. Iskandar o‘g‘li, S. B. (2024). VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGGIGA TA‘SIRI. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 31-35.
17. Bozarov, F. (2024). ANALOGICAL AND DIGITAL SCHEMATICS: A COMPREHENSIVE OVERVIEW. "Science Shine" International Scientific Journal. извлечено от <https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/1082>
18. Sa‘dullayev, A., Abdurazzoqov, S., & Asadullayeva, M. (2024). MARKETING OF SOCIAL NETWORKS IN THE MODERN WORLD ROLE IN THE FIELD. *Talqin va tadqiqotlar*.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004801>

## OLIV O'QUV YURTLARIDA JISMONIY TARBIYA FANINING AHAMIYATI

**Sultonov Vahob Murotovich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM stajyor o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining talabalar uchun o'rni haqida ma'lumot berilgan. Jismoniy tarbiyaning talabalar sog'lig'i uchun ahamiyati to'g'risida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar.** Jismoniy tarbiya, oliy o'quv yurtlari, sog'liq, ruhiy holat, ijtimoiy integratsiya, stress.*

## ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СТРАНАХ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье представлена информация о роли физического воспитания студентов высших учебных заведений. Объясняется значение физического воспитания для здоровья студентов.*

***Ключевые слова:** Физическое воспитание, высшие учебные заведения, здоровье, психическое состояние, социальная интеграция, стресс.*

## THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATION COUNTRIES

### ANNOTATION

*This article provides information about the role of physical education for students in higher education institutions. The importance of physical education for the health of students is explained.*

***Keywords:** Physical education, higher education institutions, health, mental state, social integration, stress.*

**Kirish.**

Jismoniy tarbiya fani oliy o'quv yurtlarida ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu fan talabalarning umumiy jismoniy rivojlanishi va sog'lig'ini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiya nafaqat tanani chiniqtiradi, balki intellektual rivojlanishga, ijtimoiy moslashuvga ham yordam beradi. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining ahamiyati, uning talabalarning sog'lig'i va ruhiy holatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Jismoniy tarbiya darslari bakalavrlar va mutaxassislarning kasbiy faoliyatida katta ta'sir ko'rsatadi. O'quv faoliyati davomida talaba harakatda o'zini cheklaydi va diqqatini va ko'rishni jamlagan holda asosan aqliy ishlaydi. Asab tizimi doimiy ruhiy stress bilan charchagan bo'lishi mumkin. Ayni paytda jismoniy tarbiya darslari yordamga keladi. Aqliy faoliyat sohasini jismoniyga o'zgartirish orqali o'quvchilarga asab tizimi va butun tananing charchoqlarini bartaraf etish imkoniyati beriladi. Aniqlanishicha, shu tariqa ish unumdorligi oshadi va jismoniy faollikni to'g'ri taqsimlash bilan o'quvchilarda aqliy faollik kuchayadi [1].

**Materiallar va metodlar.**

Maqolada oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liq, jismoniy va ruhiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish uchun kuzatuv va anketali so'rov metodlaridan foydalanildi. 100 nafar talaba orasida sog'liq holati, stress va jismoniy faoliyat holatini o'rganish uchun anketalar tarqatildi. Shuningdek, oliy ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining talabalar faoliyatiga ta'siri kuzatildi.

**Natijalar.**

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya fanining joriy etilishi talabalarning jismoniy holatini yaxshilashga yordam bergan. So'rov natijalariga ko'ra, talabalarning 85% jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan keyin o'zlarini yaxshi his qilganini bildirgan, ularning stress darajasi kamaygan va umumiy sog'liq holatlari yaxshilangan. Shuningdek, talabalar orasida ijtimoiy faollik va jamoaviy ish ko'nikmalari ham ortgan.

Jismoniy holat: Talabalarning jismoniy faolligi oshishi ularning yurak-qon tomir tizimi sogʻligʻini mustahkamlashiga yordam bergan. Oʻquv yili davomida talabalar oʻrtasida olingan natijalarga koʻra, ulardagi kislorod isteʼmoli koʻrsatkichlari 20% ga yaxshilangan.

Stress va ruhiy holat: Jismoniy faoliyat stressni kamaytirishda muhim omil boʻlib, talabalarning 70% dan ortigʻi jismoniy mashgʻulotlardan keyin psixologik jihatdan tinchlanganini va ularning kundalik hayotdagi stress darajasini pasaytirganini bildirgan.

Ijtimoiy integratsiya va intizom: Jamoaviy sport mashgʻulotlari talabalar orasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga va ular oʻrtasidagi jamoaviy intizomni oshirishga yordam bergan. Talabalarning 60% dan koʻprogʻi jismoniy tarbiya darslari orqali ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirganliklarini taʼkidlagan.

### **Muhokama.**

Jismoniy tarbiya oliy oʻquv yurtlarida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya sogʻliqni saqlash va mustahkamlashning eng samarali yoʻli hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, talabalarning sogʻligʻi, ruhiy barqarorligi va jamoaviy aloqalari yaxshilanmoqda. Jismoniy mashgʻulotlar faqat tanani chiniqtirish bilan cheklanib qolmasdan, talabalar oʻrtasida ijtimoiy va ruhiy integratsiyani ham kuchaytiradi.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya talabalarda oʻz-oʻzini boshqarish va oʻz intizomini rivojlantiradi. Biroq, olingan natijalar shuni koʻrsatmoqdaki, jismoniy tarbiya faniga talabalar oʻrtasida qiziqishning pasayishi ham kuzatilmoqda. Bu fan dasturining mazmunini yangilash va uni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish zarurati mavjud.

### **Xulosa.**

Jismoniy tarbiya oliy oʻquv yurtlarida talabalarning sogʻliq va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, ularning ruhiy holati va ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirishga katta hissa qoʻshadi. Maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, jismoniy tarbiya nafaqat talabalar sogʻligʻini yaxshilash, balki ularning kundalik hayotlarida ham stress

darajasini kamaytirishda samarali bo'lib kelmoqda. Bu fan talabalarni nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham chiniqtiradi va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshiradi. Shu sababli, oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya fanining ahamiyati juda yuqori.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djurabekov Elmurod Tuxtamurodovich. Jismoniy tarbiya fanining talaba hayotidagi o'rni va ahamiyati. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "SCIENCE, EDUCATION AND INNOVATION: PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROSPECTS" MAY 17-18, 2024.
2. Salamov R.S. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati". 1 jild. Darslik. ITAPRESS. T. 2014 yil. 297 b.
3. Курамшин Ю.Ф. "Теория и методика физической культуры". Учебник / С.С. 2004 г. 464 с.
4. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. Учебник. Москва. – 1991 г. 200 с.
5. Botirovich, X. S. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 26-30.
6. Asror o'g'li, A. O. (2024). RAQAMLI MUHITDA INKLYUZIV TA'LIM. ALOHIDA TA'LIMGGA MUHTOJ TALABALAR UCHUN IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR. Modern education and development, 11(3), 173-179.
7. Asror o'g'li, A. O., & Hamza o'g'li, M. O. (2024). ONLAYN TA'LIM O'QITUVCHILARNI BAHOLASHDA KASBIY FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA: ELEKTRON KURSLARDAN, MOOCLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. Modern education and development, 11(3), 166-172.



8. Botirovich, X. S. (2024). RAQAMLI MUHITDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA MODELLARI. *Modern education and development*, 11(3), 155-161.
9. Iskandar o'g'li, S. B., & Hamza o'g'li, M. O. (2024). TA'LIMNING TURLI DARAJALARIDA ONLAYN TA'LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI. *Modern education and development*, 11(3), 133-140.
10. Botirovich, X. S., Murodullo o'g, J. O. T., & Iskandar o'g'li, S. B. (2024). PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. *Modern education and development*, 11(3), 120-126.
11. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.
12. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
13. Маматова, Г. (2023). Цифровой университет: стратегия создания умной инфраструктуры в высших учебных заведениях Узбекистана. *Economics and Innovative Technologies*, 11(4), 296-312.
14. Mamatova, G. (2023). OLIY TA'LIM MUASSALARINING RAQAMLI FAOLIYATI hamda KELAJAK KADRLARINI TAYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR va SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH JARAYONLARI. KELAJAK KASBLARI. *Interpretation and researches*, 1(7).
15. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004819>

## O‘ZBEKISTONDA BASKETBOLNING RIVOJLANISHI

**Sultonov Vahob Murotovich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM stajyor o‘qituvchisi

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada O‘zbekitonda basketbol sportr o‘yining rivojlanishi va unga qaratilayotgan e’tibor haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** basketbol, O‘zbekiston, rivojlanish, milliy terma jamoa, sport infratuzilmasi, yoshlar basketboli, murabbiy tayyorlash.*

## РАЗВИТИЕ БАСКЕТБОЛА В УЗБЕКИСТАНЕ

### *АННОТАЦИЯ*

*В данной статье представлена информация о развитии баскетбола в Узбекистане и внимании, уделяемом ему.*

***Ключевые слова:** баскетбол, Узбекистан, развитие, национальная сборная, спортивная инфраструктура, юношеский баскетбол, подготовка тренеров.*

## DEVELOPMENT OF BASKETBALL IN UZBEKISTAN

### *ANNOTATION*

*This article provides information about the development of the sport of basketball in Uzbekistan and the attention paid to it.*

***Keywords:** basketball, Uzbekistan, development, national team, sports infrastructure, youth basketball, coach training.*

## **Kirish.**

O‘zbekistonda sportning turli turlari rivojlanib kelayotgan bo‘lsa-da, basketbol so‘nggi yillarda yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilmoqda. Basketbol o‘zining jismoniy kuch talab etishi va jamoaviy o‘yin sifatida o‘smirlar va yoshlar orasida ommalashgan sport turi hisoblanadi. O‘zbekistonda basketbol rivojlanishi bir nechta tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi, lekin hozirgi zamonaviy bosqich yangi sport infratuzilmasi va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish orqali sezilarli natijalar ko‘rsata boshladi. Ushbu maqola O‘zbekistonda basketbolning rivojlanish jarayonlari, muammolar va istiqbollarga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston sportchilarini “Basketbol” degan o‘yin bilan birinchi marta Moskva instruktorlar va chaqiriq yoshidagi yigitlarni harbiy xizmatga tayyorlash maktabining bitiruvchisi Turkiston o‘lkasiga xizmat safariga yuborilgan umumta’lim vakili L.Barxash tanishtirgan. U 1920 yilning aprel oyida Skobalev (hozirgi Farg‘ona) shahrida instruktorlardan va harbiy xizmatga chaqiriq yoshiga etayotgan o‘smirlardan iborat basketbol jamoasi tashkil etadi. Ularga o‘yin qoidasini tushuntirib namunaviy o‘yinni o‘ziga o‘tkazib ko‘rsatadi. 28x16 metrli maydonchada o‘rtasidan ikkita uzunasiga chiziq tortilgan chegara qo‘yib, har birida 9 nafardan o‘yinchi bo‘lgan ikki jamoa uchrashadi [1].

## **Materiallar va metodlar.**

Tadqiqotda O‘zbekiston basketbolining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yutuqlari tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik qismi asosan tarixiy tahlil va statistika ma’lumotlariga asoslangan. Shuningdek, O‘zbekiston basketbol federatsiyasining rasmiy ma’lumotlari, xalqaro va milliy musobaqalar natijalari, basketbolchilar va murabbiylar bilan o‘tkazilgan intervyular ham tahlil qilingan. Ma’lumotlar yig‘ishda davlat sport tashkilotlarining rasmiy hisobotlari va OAV manbalari qo‘llanildi.

## **Natijalar.**

O‘zbekistonda basketbolning rivojlanishi bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha tahlil qilindi:

**Basketbol infratuzilmasi:** Mamlakatda so‘nggi yillarda basketbol inshootlari va sport zallari soni oshdi. Xususan, Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda zamonaviy basketbol maydonchalari qurilib, jamoalar va sport maktablari uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Bu esa yosh avlodni basketbol bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirdi.

**Milliy va xalqaro musobaqalar:** O‘zbekiston basketbol milliy terma jamoasi xalqaro musobaqalarda faol ishtirok etmoqda. Yaqinda O‘zbekiston jamoasi Osiyo Basketbol chempionatida ishtirok etdi. Yoshlar terma jamoasi esa turli mintaqaviy musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, bir nechta medallarni qo‘lga kiritdi. Bu esa basketbolning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi.

**Yoshlar basketboli:** Basketbol bo‘yicha bolalar va o‘smirlar sport maktablarining tashkil etilishi yosh avlodni sport bilan shug‘ullanishga jalb qilishga katta hissa qo‘shmoqda. Mamlakatdagi ko‘plab sport akademiyalari va maxsus basketbol to‘garaklari orqali yosh basketbolchilar yetishib chiqmoqda.

**Murabbiylar tayyorlash:** Basketbol murabbiylari tayyorlash dasturlari yanada kengaytirildi. Chet eldan kelgan murabbiylar va xalqaro dasturlar orqali O‘zbekiston basketboli xalqaro tajribaga ega bo‘lmoqda.

## **Muhokama.**

O‘zbekistonda basketbolning rivojlanishi jadal sur‘atlarda ketmoqda, ammo bir nechta muammolar hal qilinishi kerak. Birinchidan, milliy basketbol chempionatining darajasini oshirish zarur. Hozirgi kunda musobaqalarning raqobatbardoshligi past darajada bo‘lib, xalqaro maydonlarga chiqish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Ikkinchidan, sport inshootlarining sifatini oshirish va qishloq hududlarida basketbol infratuzilmasini kengaytirish zarur.

Murabbiylar tayyorlash bo‘yicha dasturlarni yana ham kuchaytirish va chet ellik mutaxassislarni jalb etish orqali milliy basketbolni zamonaviy texnika va strategiyalar

bilan boyitish lozim. Shuningdek, yoshlar o'rtasida basketbolni yanada ommalashtirish va ta'lim tizimida basketbol mashg'ulotlarini kengaytirish ham kelajakda milliy basketbolning rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Xulosa.**

O'zbekistonda basketbol rivojlanishi davom etayotgan bo'lib, infratuzilma, yoshlar tayyorlash va milliy terma jamoaning muvaffaqiyatlari uning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Milliy basketbolning yanada rivojlanishi uchun raqobatbardosh musobaqalar tashkil etish, xalqaro tajribaga ega bo'lish va sport infratuzilmasini kengaytirish kerak. Shuningdek, murabbiylar tayyorlash, yoshlar sportiga ko'proq e'tibor qaratish va basketbolni ommalashtirish orqali mamlakat basketbolini yuqori darajaga olib chiqish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Talgat Ayazbekovich Raxmatullayev. O'zbekistonda basketbol o'yinining rivojlanishi. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 4 | ISSUE 6 | 2023.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги ПҚ-3583-сон «Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлигини ташкил этиш тўғрисида»ги қарори Тошкент. 2018 йил 6 март.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 июльдаги 507-сон “Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги хузуридаги жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори Тошкент. 2018 йил 6 июль.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сон «Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» фармони. Тошкент. 2018 йил 6 март.

5. Botirovich, X. S. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 26-30.

6. Asror o'g'li, A. O. (2024). RAQAMLI MUHITDA INKLYUZIV TA'LIM. ALOHIDA TA'LIMGA MUHTOJ TALABALAR UCHUN IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR. Modern education and development, 11(3), 173-179.

7. Asror o'g'li, A. O., & Hamza o'g'li, M. O. (2024). ONLAYN TA'LIM O'QITUVCHILARNI BAHOLASHDA KASBIY FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA:

ELEKTRON KURSLARDAN, MOOCLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. Modern education and development, 11(3), 166-172.

8. Botirovich, X. S. (2024). RAQAMLI MUHITDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA MODELLARI. Modern education and development, 11(3), 155-161.

9. Iskandar o‘g‘li, S. B., & Hamza o‘g‘li, M. O. (2024). TA‘LIMNING TURLI DARAJALARIDA ONLAYN TA‘LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI. Modern education and development, 11(3), 133-140.

10. Botirovich, X. S., Murodullo o‘g‘li, J. O. T., & Iskandar o‘g‘li, S. B. (2024). PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. Modern education and development, 11(3), 120-126.

11. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Экономика и социум, (2 (117)-1), 69-73.

12. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. Modern Science and Research, 3(5), 191-195.

13. Madatov, Q. (2024). C++ PROGRAMMING LANGUAGE OPERATOR USAGE AND THEIR TYPES AND MAIN FUNCTIONS. Models and methods in modern science, 3(1), 244-254.

14. Madatov, Q. (2024). C# VA .NET CORE PLATFORMASI C# DASTURLASH TILINING OPERATORLARI QO‘LLASH VA ULARNING TURLARI HAMDA ASOSIY VAZIFALARI. Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(1), 59-67.

15. Маматова, Г. (2023). Цифровой университет: стратегия создания умной инфраструктуры в высших учебных заведениях Узбекистана. Economics and Innovative Technologies, 11(4), 296-312.

16. Mamatova, G. (2023). OLIY TA‘LIM MUASSALARINING RAQAMLI FAOLIYATI hamda KELAJAK KADRLARINI TAYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR va SUN‘IY INTELEKTNI QO‘LLASH JARAYONLARI. KELAJAK KASBLARI. Interpretation and researches, 1(7).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004835>

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIZAYNDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna**

FarDU Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, Filologiya fanlari doktori (DSc)

[yuldilaf@mail.ru](mailto:yuldilaf@mail.ru)

**Matkarimova Shaxnoza Maxamadjanovna**

Farg‘ona shahar 16-Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchi-tarbiyachi

[saxnozamatkarimova647@gmail.com](mailto:saxnozamatkarimova647@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik dizaynni imkoniyatlari atroflicha yoritilgan. Kompetensiyali pedagog o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishish va faoliyatining har bir bosqichida kasbiga mos keladigan vazifalarni hal qila olishiga atroflicha yondashilgan. Kommunikativ kompetensiya orqali pedagoglar atrofdegı tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalar bilan o‘zaro munosablarni yo‘lga qo‘yishlarida dizayn imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda turgan.*

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, kompetensiya, kommunikativ nutq, pedagogik dizayn, rivojlanish, talaba, ta‘lim oluvchi.

### ABSTRACT

*This article describes in detail the possibilities of pedagogical design in the development of speech competences of future teachers. A competent pedagogue is carefully approached to be able to mobilize and apply his knowledge, skills and abilities in a specific situation, to achieve his goal and to solve the tasks corresponding to his profession at each stage of his activity. By means of communicative competence, pedagogues mean the use of design opportunities in establishing mutual relations with the surrounding pupils and parents.*

**Key words:** education, competence, communicative speech, pedagogical design, development, student, learner.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim sohasi rivojlanayotgan soha bo'lib, u butun dunyo va ta'lim sohasi mutaxassisleri va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Yurtimizda ta'lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, o'quv uslubiy ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish, ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etish va fanlarni o'zlashtirishda kompetensiyadan foydalanish ta'lim samarasini yuksaltirmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish - o'z bilim ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilish va qo'llash, o'z maqsadiga erishish va faoliyatining har bir bosqichida kasbga mos keladigan vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kommunikativ kompetensiya yaxshi rivojlangan pedagoglarda axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatlari kengroq bo'ladi,

Kommunikativ kompetensiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda **Pedagogik dizayndan** foydalanish metodikasi o'qitish jarayonini tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Bunda ta'lim jarayoniga pedagogik dizayn va uning modellarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Pedagogik dizayn (ID - instructional design) - bu o'quv maqsadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv faoliyati, materiallar va baholash strategiyalarini tizimli ishlab chiqish hamda talabalarning belgilangan ta'lim natijalariga erishishini ta'minlash jarayoni.

Mazmunga boy pedagogik dizayn asosidagi ta'lim muhitida ta'lim oluvchilar og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi bilimlarini shakllantirishga yordam beradi. Kommunikativ kompetensiyada pedagogik dizaynni



imkoniyatlarida axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ta'lim oluvchi ta'lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Pedagogik dizayn –bu o'quv maqsadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv faoliyati, materiallar va baholash strategiyalarini tizimli ishlab hamda ta'lim oluvchilarning belgilangan ta'lim natijalariga erishishini ta'minlovchi jarayondir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik dizayndan foydalanish metodikasida esa o'quv maqsadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv faoliyati, materiallar va baholash strategiyalarini tizimli ishlab chiqish hamda ta'lim oluvchilarni natijalarga erishishlarini ta'minlaydi. Pedagogik dizayn o'quv materialini yaratish uchun ishlatiladigan jarayonni anglatadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini tushunish va o'quv maqsadlarini aniqlash, so'ngra bilim va ma'lumotlarni imkon qadar tez, aniq va samarali tarzda tuzatish kerak.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining kompetensiyasini rivojlantirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Shuning uchun, Ta'lim to'g'risidagi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga bir qanqa chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Pus pedagogi S.A.Gilmanova o'zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko'plab ta'riflarni keltirgan.

Pedagogika fanlari nomzodi E.I.Litnevskaya "kommunikativ kompetensiya" atamasiga "nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og'zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma'lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini egallash» deb ta'rif beradi.

Pedagogika fanlari nomzodi T.A.Pirkova kommunikativ kompetensiya bir qancha kompetensiyalar yig'indisidan iboratligini aytadi. U "Kommunikativ kompetensiyaning tarkibi xilma-xil bo'lib, murakkab yaxlitlikni tashkil etadi. Unda bir nechta kompetensiyalar, shu jumladan, lingvistik kompetensiya ajralib turadi" – deydi.

Ko'pgina adabiyotlarni tahlil qilganimizda shunga amin bo'ldikki, ko'pgina xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vazifasi chet tillarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi deb qaraladi.

Bizning fikrimizcha esa, kommunikativ kompetensiya – bu o'quvchilarning o'zgaralar nutqini tushunishi, o'zining og'zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo'lishi, nutq vaziyatiga mos bo'lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.

## **NATIJARLAR**

Mohiyatan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagogic dizaynning roli bilimlarni nafaqat samarali, ta'sirchan va talabalarni qiziqtiradigan tarzda egallashga yordam beradigan o'quv tajribalarni yaratishdan iborat. Balki, talabalarni mavzuni chuqurroq va mazmunli tushuntirish, rag'batlantirish orqali o'zlashtirish jarayonini yanada yaxshilash va kerakli bilimlar darajasiga ega bo'lishiga qaratilgan.

Pedagogik dizayni to'g'ri tashkil etilishi to'g'ri tashkillansa, ta'lim oluvchi shaxs barkamol bo'lib yetishishiga yordam beradi. Ta'limda pedagogik dizaynni samarali tashkillash ta'lim oluvchilarni kognitiv rivojlanishlarini oshirib, ularda ijodkorlik tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Uchinchi ming yillikning oxirida dunyoqarashning o'zgarishi aloqa va axborot sohasidagi inqilob bilan yuzaga keldi. Ommaviy kompetensiyalashtirish, eng yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, ta'lim, biznes va ijtimoiy hayot sohalari uchun sezilarli o'zgarishlarni olib keldi. Ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar esa, dasturiy ta'minotni tuzdi hamda bu yo'l bilan joriy etilgan axborotni yanada takomillashtirish, to'plash va uzatish jarayonini tezlashtirdi, shuning bn birgalikda axborotdan foydalanish imkoniyatlari osonlashdi.

## MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik dizayndan foydalanish metodikasi ona tili va boshqa fanlardan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi. Chunki o'qituvchilar muloqot qilish natijasida o'quvchilarga dunyoni yanada kengroq anglab borishlariga yordam berishadi. Bu esa ularning ta'limning keying bosqichlarida ham bilimlarni puxta egallashga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglashi, o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmalarni shakllantirishning usullarini bilishi lozim.

Pedagogik dizayn vositasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik dizayn zarur darajasi o'qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta'limning har bir bosqichida alohida e'tibor beriladi.

## XULOSA

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga asoslanib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini pedagogik dizayn imkoniyatlari asosida rivojlantirish orqali ta'limda samarali natijalarga erishish mumkin. Pedagogik dizayn aniq strategiyali, maqsadli va natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan ta'lim muhitiga aylantirish imkoniyatini beradi. Pedagogik dizayn bo'lajak pedagoglarni nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'limning noyob vositasi hisoblanadi, pedagoglar va ta'lim oluvchilar birgalikda ijod qilishi, ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish usuli hisoblanadi. Pedagogik dizaynda ta'lim oluvchi hayotning turli sohalariga oid yangi g'oyalar va tushunchalarni o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lib boradi. Masala yoki muammoni yechimini topishga turlicha yondashish pedagogik dizayning asosiy maqsadidir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Kasbiy pedagogika” O‘zbekiston Respublikast Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan Daminov Oybek Olimovich “Adabiyot uchquni” Toshkent 2018.

2. Ta’lim innovasiyalar tadqiqotlar “Pedagogik kompetensiya” va uni bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish” F.M.Yusupova 155-bet.

3. Adilova M.F. (2022). “Innovation yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish”. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(7), 99-106.

4. D.M.Yuldasheva, Sh.M.Matkarimova “Improving the process of using pedagogical design and vitagenic educational opportunities in the development of speech communicative competence of future educators”. INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (ISSN: 2692-5206)

5. Sh.M.Matkarimova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni bilish jarayonlarini rivojlantirish metodikasining ahamiyati”. JOURNAL OF IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI. SPECIAL ISSUE, AUGUST, 2024 YEAR

6. R.K.Bekmagambetova, D.M.Yuldasheva, Sh.M.Matkarimova “Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o‘rgatish” FarDU. ILMIY XABARLAR-1-2023.

7. International scientific and praktikal conference ”aktual issuef of primary education:problems,solutions and development prospects” aprel 26,2024. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirishning o‘ziga xosligi. Maziyyayeva Muqaddasxon Esonovna 268-269 betlar.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004856>

## INDO-YEVROPA TILLARINING QIYOSIY TAHLILI

**Allanova Muhayyo Jumanazar qizi**

**Chorshanbiyeva Nafosat Komilovna**

**Ro‘zibayeva Kamila Qulmurod qizi**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Hind-Yevropa tillari oilasiga kiruvchi sanskrit, lotin va qadimgi yunon tillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlari tahlil qilinadi.*

*Kalit so‘zlar: tilshunoslik, fonetika, morfologiya, sintaksis, ildiz, grammatik qurilish, Hind-Yevropa.*

Tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy nazariyasi – tillarning tarixiy taraqqiyoti va ularning bir-biriga yaqinligini o‘rganish maqsadida tillarni qiyoslashga asoslangan tilshunoslik yondashuvidir. Bu nazariya asosida tillarning bir-biriga o‘xshashligi, ularning umumiy ildizga ega ekanligi va turli davrlarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini aniqlash uchun tahlillar olib boriladi.

Bu sohaning asosiy maqsadlari quyidagilardir

1. Tillarning kelib chiqishini o‘rganish–bunda biz tillarning qanday rivojlanganini, qanday umumiy manbalardan kelib chiqqanini aniqlashga yordam beradi.

2. Fonetik va morfologik o‘zgarishlarini aniqlash–bu qismida biz tillarning tovushlar tizimini va grammatik qurilishida tarixiy davr mobaynida yuz bergan o‘zgarishlar o‘rganiladi.

3. Tillarning qarindoshligini aniqlash–biz bu qismda tillarning bir biriga qanday qarindoshligi bir ekanligini o‘rganamiz masalan: turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kirishi va ularning bir biriga qanday yaqinligi bir ekanligini o‘rganadi.

Hind-Yevropa tillari dunyodagi eng katta va eng keng tarqalgan til oilalaridan biri hisoblanadi. Ushbu til oilasi Yevropa, Janubiy va G'arbiy Osiyo hamda Shimoliy va Janubiy Amerika mintaqalarida keng tarqalgan tillarni o'z ichiga oladi. Hind-Yevropa tillaridan tahminan 3,5 miliona ga yaqin insonlar foydalanib kelmoqda. Bu til oilasi tarixiy jihatdan eng qadimgi yozma manbalarga ega va tilshunoslar tomonidan eng ko'p o'rganilgan til oilalaridan biridir.

Sanskrit, lotin va qadimgi yunon tillari eng avvalo bir xil til oilasiga kirishi jihatidan ya'ni Indo-Yevropa tillari oilasiga mansubli tomonidan bir biriga o'xshaydi. Bu tillar orasidagi o'xshashliklar asosan fonetik, morfologik, sintaksis va leksik sohalardir. Misol uchun:

#### 1. Fonetik o'xshashliklar

Tovush tizimi: Dunyoga keng tarqalgan hindyevropa tillari oilasining shakillanishida Sanskrit tilining jarangdorligi, fonetikasi bilan bog'liq bo'lib silavyan, qadimgi arman, frakiy, alban, roman tillariga buyuk ko'chish davri natijasida keng ta'sir o'tkazgan. Sanskrit, lotin va qadimgi yunon tillarida ko'pgina undosh va unli tovushlar o'xshashdir. Masalan, [p], [t], [k] tovushlari har uchala tilda ham mavjud va ma'lum so'zlarda aynan shu tovushlar ishlatiladi.

Unli tovushlarning almashishi: Hind-Evropa tillariga xos bo'lgan unli tovushlar almashuvi (masalan, sanskritda "a", lotinda "e", yunon tilida "o") kuzatiladi. Masalan, sanskritcha "pad" (oyoq) so'zi lotinda "pes", yunon tilida esa "pod" tarzida ifodalanadi.

#### 2. Morfologik o'xshashliklar

Kasrlar tizimi: Ular hammasida yettita yoki oltita kasr mavjud bo'lgan, shu jumladan Nominativ, Genitiv, Dativ, Akkuzativ, Ablativ kabi tushumlar bir xil ma'noda ishlatilgan. Masalan: Sanskrit: "nr̥" (odam) so'zining nominativi "nr̥s", genitivi "nr̥ṣas".

Lotin: "homo" (odam) so'zining nominativi "homo", genitivi "hominis".

Qadimgi yunon: "anthropos" (odam) so'zining nominativi "anthropos", genitivi "anthropou".

Fe'l konjugatsiyasi: Uchala tilda ham fe'lining shaxsga, songa va zamonga ko'ra o'zgartirilishi (konjugatsiya) umumiy tamoyillarga ega. Masalan, uchinchi shaxs birlik zamon ko'rsatkichlari o'xshash bo'lgan:

.Sanskrit: "bhavati" (u bo'ladi).

Lotin: "est" (u bor).

Yunon: "esti" (u bor).

### 3.Leksik o'xshashliklar

Ko'pgina asosiy so'zlar, ayniqsa qarindoshlik, raqamlar, tana qismlari va tabiat hodisalari bilan bog'liq so'zlar uchala tilga o'xshash. Misollar:

Ota:

Sanskrit: pitar, Lotin: pater, Qadimgi yunon: patēr

Oyoq:

Sanskrit: pad, Lotin: pes, Qadimgi yunon: pous (pod-)

Uch:

Sanskrit: trayas, Lotin: tres, Qadimgi yunon: treis

Bu so'zlarning o'xshashligi ularning umumiy kelib chiqishi va o'zaklarining bir xil ekanligidan dalolat beradi.

### 4.Sintaktik o'xshashliklar

Uchala til ham erkin so'z tartibiga ega bo'lgan. Bu tillarda so'zlar ma'noni ifodalash uchun qat'iy tartibda bo'lmasa ham, kasr va tushumlarning o'zgarishi asosida ma'no anglashilgan. Masalan, gapdagi so'zlarning tartibi unchalik muhim emas, lekin so'zning o'zi qaysi kasrda ekanligi asosiy ma'no ko'rsatkichidir.

### 5.Hind-Yevropa ildizlari

Sanskrit, lotin va yunon tillaridagi ko'plab so'zlar bir xil ildizga ega. Hind-Yevropa til oilasidagi ko'plab ildiz so'zlar, xususan, raqamlar, qarindoshlik atamaları va kundalik hayotga oid tushunchalar, o'xshash shaklda uchraydi. Bu so'zlar evolyutsiya jarayonida farqlangan bo'lsa-da, ularning o'zaklari bir xil.

Qadimgi yunon, lotin va sanskrit tillari o'rtasidao'xshashlikari bilan bir qatorda bir nechta asosiy farqlar mavjud. Bu tillar o'ziga xos fonetik, grammatik va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

### 1. Kelib chiqishi va hududi:

Qadimgi yunon tili Yunoniston va Egey dengizi hududida gaplashilgan va Gomer, Platon, Aristotel kabi muhim shaxslarning asarlarida qoʻllangan.

Lotin tili qadimiy hind-yevropa tillariga xos, uni xett tili, hind-eron, kilt tillari bilan yaqinlashtiruvchi xususi-yatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar chuzikli-gining fonologik farqlanishiga egaligi, urgʻu soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushmasligi, undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat. Lotin tili dastlab Italiya yarim orolida yashagan rimliklar tili boʻlib, Rim imperiyasi davrida keng tarqalgan. Lotin tili keyinchalik romantik tillarning (fransuz, italyan, ispan va boshqalar) asosi boʻldi.

Sanskrit tili Hindistonning qadimgi diniy va ilmiy tili boʻlib, asosan hind falsafasi, diniy matnlar (Rigveda, Mahabharata, Ramayana) va qadimgi Hindiston madaniyatida ishlatilgan.

### 2. Alifbo va yozuv:

Qadimgi yunon tili oʻziga xos yunon alifbosidan foydalangan. Bu alifbo keyinchalik kirill va lotin alifbosi uchun asos boʻldi.

Lotin tili lotin alifbosidan foydalangan, bu esa bugungi kunda koʻpchilik zamonaviy tillar, jumladan ingliz tilining asosiy yozuv tizimi hisoblanadi.

Sanskrit tili Devanagari alifbosida yozilgan. Bu yozuv tizimi hozirgi kunda hind va boshqa hind tillari uchun ishlatiladi.

### 3. Fonologiya (tovush tizimi):

Qadimgi yunon va lotin tillari oʻrtasida tovush tizimida biroz oʻxshashliklar boʻlsa-da, sanskrit tilida juda murakkab fonetik tizim mavjud boʻlib, undosh va unli tovushlar keng turli qoidalar asosida ishlatilgan.

Sanskrit tilida turli xil undosh tovushlarning keng turlari, jumladan, nafasli va nafasiz tovushlar mavjud.

### 4. Grammatika:

Qadimgi yunon va lotin tillari koʻp hollarda flektiv tillar boʻlib, soʻzlarning shakli maʼnoni ifodalash uchun oʻzgarib turadi. Ular jins, tuslanish, kelishik va son kategoriyalariga ega.



Sanskrit tili ham flektiv tillar turkumiga kiradi, lekin uning grammatikasi o'ziga xos bo'lib, yetti kelishik va uchta son turini o'z ichiga oladi.

#### 5. Madaniy ahamiyati:

Qadimgi yunon tili falsafa, san'at va fan sohalarida katta ta'sir ko'rsatgan. Yunon falsafasi va ilm-fani g'arb madaniyatiga asos bo'lgan.

Lotin tili G'arb diniy va huquqiy merosida katta rol o'ynagan. Rim katolik cherkovi va o'rta asrlardagi Evropa universitetlarida asosiy tili sifatida ishlatilgan.

Sanskrit tili Hindistonning diniy va falsafiy adabiyoti, ayniqsa hinduizm va buddizm matnlarining asosi bo'lgan<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ushbu tillar bir-biridan juda farq qilsa-da, ularning har biri o'z madaniyati va tarixida chuqur iz qoldirgan va global miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu tillarning asosiy o'xshaligi bir umumiylikka ega ekanligi va bundan tashqari bu o'xshashlikari sababli biz Indo-Yevropa til oilasidagi dastlabki til shakllaridan habardor bo'lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmanova.Z. "Tilshunoslikka kirish"
2. Inlibrary.uz
3. Haydarov. A. "Etimalogiya"
4. Arxiv.uz

---

<sup>1</sup> htmlkabanckp

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004884>

## O‘SMIRLARDA HUQUQIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI

**Gulamova Lobar Hakimjonovna**

Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrası  
2-bosqich magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘smirlik davrida huquqiy bilimlarni shakllantirishning ahamiyati va usullari haqida so‘z yuritiladi. Huquqiy bilimlar o‘smirlarni qonunbuzarlikdan himoya qiladi va ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi. Maktabda huquqiy fanlarni o‘qitish, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar va oila muhitida huquqiy tarbiya huquqiy madaniyatni rivojlantirishning samarali yo‘llari sifatida taqdim etilgan. Maqolada jamiyatdagi huquqiy bilimlarning roliga va kelajak avlodlarni qonuniy ongli shaxslar sifatida tarbiyalashning zarurligiga alohida e‘tibor qaratilgan.*

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Варахша (Джандорский район Бухарской области) являвшаяся резиденцией бухархудатов бухарских правителей, располагается в 40 км к северу-западу от Бухары. Согласно археологическим данным она возникла в первые века до н.э. как последняя остановка караванов перед восьмидневным переходом через пустыню из Бухары в Хорезм. В 4 в. – 5 вв. на территории Варахши возводятся новые монументальные сооружения из пахсы, заново отстраивается цитадель, строится дворец. С X до XII вв. Варахша являлась значительным экономическим центром Бухарского оазиса с ремесленным пригородом рабадом. В XII в. жизнь на Варахше останавливается ввиду отсутствия воды.

В настоящее время городище занимает площадь 9 гектаров. Город был окружен крепостной стеной, доходившей до 10 м высотой.

Общее количество рассмотренных колец – 44 единицы. По сведениям, собранным во время опроса владельца коллекции их гораздо больше, но наша цель описать и рассмотреть данную выборку.

По форме и технике изготовления кольца можно подразделить на три основные группы (рис. I и II).

1 группа: Кольца с гнездами для камней (камни утеряны)

1. Кольцо из круглой проволоки, в с расширением в области щитка. Щиток ромбовидной формы, гравированной полоской разделен на два сектора в каждом неглубокие миниатюрные круглые углубления для камней-бусинок. Диаметр кольца – 19 - 21 мм, размеры щитка - 8 - 16 мм.  
11. Фрагмент щитка бронзового перстня с двумя гнездами под камни было найдено и в Пайкенде. Диаметр 12 мм [Семенов, Мирзаахмедов и др., 2003, с. 49]

1. Кольцо с приподнятым круглой формы гнездом для камня, края гнезда оформлены зубчиками. Д-р- 11мм. Аналогичной формы кольцо представлено среди находок из металла, собранных экспедицией В.А. Шишкина на поверхности городища Варахша [Шишкин, 1963, табл. 9] и на территории городища Пайкенд [Семенов, Мирзаахмедов и др., 2008, рис.104]
2. Кольцо с прямоугольной формы гнездом достаточно крупного размера. Д-р – 21 мм

#### 2 группа колец:

1. Миниатюрные кольца диаметром 14 - 15мм, из круглой в сечении проволоки, щиток граненый ромбовидной, прямоугольной форм. 7x5 мм
2. Кольца из сплющенной проволоки, щитки различных форм: квадратной формы 7x7 мм приподнят, прямоугольной формы, ромбовидной формы, круглой и овальной формы. На отдельных имеется орнамент гравированный, например в виде перекрещенных линий. По сторонам от щитка выгравированный орнамент в форме галочек. Д-р колец варьируют от 14 мм до 21 мм. Аналогичные кольца происходят из городища Пайкенд [Семенов, Мирзаахмедов и др., 2005, рис. 84 ]
3. Перстень из круглой в сечении проволоки с крупным щитком прямоугольной формы. На щитке просматривается арабиграфическая выгравированная надпись.

#### 3 группа.

1. Кольца из сплющенной проволоки круглой формы, диаметром 12- 20 мм

**РЕЗУЛЬТАТЫ** Рассмотренные выше кольца и перстень достаточно простой формы, но выполненные аккуратно, выглядят как недорогие украшения для массового потребителя. Нахождение большого их количества дает возможность предположить, что во время земляных работ была найдена мастерская ювелира, занимавшегося изготовления украшений из бронзы, в

том числе и конец. Отдельные рассмотренные кольца находят аналогии среди найденных ранее на территории Варахши, Пайкенда и датируются XI – XII вв. [Малкиель, 2002, с. 44; Семенов, Мирзаахмедов, 2001, 2002, рис. 117, с. 77; Шишкин, 1963, с. 47]

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ** Исследование ювелирного дела Бухарского региона – одного из традиционных видов ремесла и искусства, – имеет большое значение для выяснения роли Бухары как важнейшего ремесленного центра Центральной Азии.

## ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

2. Малкиель И.(2002) Использование мастики в ювелирных украшениях Пайкенда // Ювелирное искусство и материальная культура. Тез. докл. участников одиннадцатого коллоквиума. – СПб., с. 22-33
3. Семенов Г.Л., Мирзаахмедов Дж. К. и др. Раскопки в Пайкенде в 2000 году. – СПб., 2001
4. Они же. Раскопки в Пайкенде в 2001 году. – СПб., 2002
5. Семенов Г.Л., Мирзаахмедов Дж. К. и др. Раскопки в Пайкенде в 2002 году. – СПб., 2003
6. Они же. Раскопки в Пайкенде в 2004 году. – СПб., 2005
7. Они же. Раскопки в Пайкенде в 2007 году. – СПб., 2008
8. Шишкин В.А, Варахша. М. 1963

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048552>

## YOSH GANDBOLCHILARNI HUJUM JARAYONIDA KORDINATSION HOLATINI OSHIRISH

**Burxonov Farrux Razzoq o'g'li**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti jismoniy  
madaniyat va sport kafedrası o'qituvchisi

**Usanova Durdona Xusan qizi**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika va  
jismoniy madaniyat fakulteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yosh gandbolchilarni hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirish masalasini o'rganadi. Sport o'yini sifatida gandbolning xalqaro arenada keng tarqalishi va o'sishi, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonidagi muhim omil sifatida ularning hujumdagi samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Maqolada, o'yinchilarning koordinatsion ko'nikmalarini oshirish orqali hujum jarayonida muvaffaqiyat darajasini qanday yaxshilash mumkinligi statistika va ilmiy tadqiqotlar asosida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Gandbol, yosh sportchilar, hujum jarayoni, koordinatsion holat, tezlik, nazorat, o'yin samaradorligi, jamoa mashg'ulotlari, statistika, innovatsion usullar

**Abstract:** This article examines the issue of improving the coordination position of young handball players during the attack. The spread and growth of handball as a sport in the international arena requires increasing their offensive efficiency as an important factor in the training process of young athletes. The article examines, based on statistics and scientific research, how to improve the success rate in the attack process by improving the coordination skills of the players.

**Key words:** Handball, young athletes, attack process, coordination state, speed, control, game efficiency, team training, statistics, innovative methods



## KIRISH

Gandbol sporti, o'zining dinamikasi va yuqori tezlikdagi harakatlari bilan, o'yinchilardan nafaqat jismoniy kuch, balki psixologik va kognitiv ko'nikmalarni ham talab qiladi. Yosh gandbolchilar uchun hujum jarayonida samarali harakat qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati tobora muhim ahamiyatga ega. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, yosh o'yinchilarning 70% dan ortig'i hujum jarayonida ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning umumiy o'yin natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[2]

Hujum jarayonida koordinatsion holatni oshirish orqali o'yinchilar o'z harakatlarini yanada samarali va tezkor bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p yillik tajriba va o'quv dasturlari orqali o'quvchilarning harakat tezligi va koordinatsiyasi 30% ga oshishi mumkin. Masalan, 2018 yilda o'tkazilgan bir tadqiqotda, yosh o'yinchilarning koordinatsion ko'nikmalarini yaxshilash uchun mo'ljallangan maxsus mashg'ulotlar natijasida o'yin samaradorligida 15% ga yaqin o'sish kuzatilgan.[4]

Ushbu maqolada yosh gandbolchilarni hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirish uchun zarur bo'lgan metodologiyalar va strategiyalar ko'rib chiqiladi. Maqsad - o'quvchilarning individual va jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o'yin samaradorligini oshirishdir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy ilmiy yondashuvlar va sport psixologiyasi kabi sohalardan foydalanish muhimdir.[5]

Yosh sportchilarning hujum jarayonidagi muvaffaqiyati nafaqat ularning jismoniy tayyorgarligiga, balki psixologik tayyorgarliklariga ham bog'liqdir. Shuning uchun, bu mavzu nafaqat sport, balki psixologiya sohasida ham qiziqish uyg'otadi. O'quv jarayonida innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yosh o'yinchilarning muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.[6]

Bunday yondashuvlar orqali yosh gandbolchilarni tayyorlash jarayoni nafaqat sport natijalarini yaxshilashga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir

ko'rsatishi kutilmoqda. Shu bois, ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar va tavsiyalar yosh o'yinchilarni tayyorlashda yordam beradigan nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

### ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yosh gandbolchilarni hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda ortib bormoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili, o'yinchilarning individual va jamoaviy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion metodlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, Alon et al. (2021) o'z tadqiqotlarida sportchilarning nazorat ko'nikmalarini 30% ga oshirish orqali ularning hujum samaradorligini 20% ga yaxshilanishini ta'kidladi. Bu kabi tahlillar yosh sportchilarning tayyorgarlik jarayonida o'qitish metodlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.[3]

Adabiyot tahlilida shuningdek, sport ilm-fanidagi yangi yondashuvlar, masalan, kognitiv va motorik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodologiyalarni qo'llash orqali sportchilarni tayyorlash jarayonini yaxshilash mumkin. O'rganishlarga ko'ra, mashg'ulotlar davomida o'yinchilarning ruhiy holati va motivatsiyasi hamda ular o'rganayotgan ko'nikmalarining amaliyoti muhimdir. Li va Chen (2020) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, o'yinchilarni psixologik motivatsiyasini oshirish orqali 15% ga muvaffaqiyat darajasini yaxshilash mumkinligi aniqlangan.[1]

Ushbu maqolada ishlatilgan metodologiya o'quv jarayonida bir qator usullarni o'z ichiga oladi. Bular orasida:

1. **Kuzatuv:** Yosh gandbolchilarni tayyorlash jarayonida, ularning harakatlarini kuzatish orqali koordinatsion holatini baholash. Bu metod, o'yinchilarning individual qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi.

2. **Eksperimental metodlar:** O'quv jarayonida yangi metodlar va mashg'ulotlarni qo'llash orqali ularning samaradorligini o'rganish. Statistika ko'rsatkichlari asosida, bu metodlar yordamida sportchilarning ko'nikmalarini 25% ga oshirish mumkinligi taxmin qilinmoqda.

3. **Anketalar va so‘rovnomalar:** O‘yinchilarning fikr va tajribalarini o‘rganish maqsadida. Anketalar yordamida sportchilar o‘zlariga qulay bo‘lgan metodlarni va tayyorgarlik jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlashlari mumkin.

4. **Yakuniy baholash:** Mashg‘ulotlar davomida va yakunida o‘yinchilarning ko‘nikmalarini baholash. Bu jarayon statistik ma‘lumotlar asosida baholashni amalga oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, adabiyot tahlili va qo‘llaniladigan metodologiya yosh gandbolchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy yondashuvlar va statistik tadqiqotlar yordamida ularning hujum jarayonidagi koordinatsion holatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda yosh sportchilarni tayyorlash va ularning o‘yin samaradorligini oshirishda qo‘llanilishi mumkin.

## NATIJALAR

Ushbu tadqiqot davomida yosh gandbolchilarni hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirishga qaratilgan bir qator metod va usullarni qo‘llash orqali erishilgan natijalar quyida keltirilgan. Tadqiqot jarayonida 30 nafar yosh gandbolchining koordinatsion ko‘nikmalari, jamoaviy harakatlari va hujum samaradorligi baholandi.

1. **Koordinatsion Ko‘nikmalar:** Tadqiqot davomida qo‘llanilgan maxsus mashg‘ulotlar natijasida yosh sportchilarning koordinatsion ko‘nikmalari o‘rtacha 22% ga yaxshilandi. O‘quv dasturiga kiritilgan innovatsion yondashuvlar, masalan, tezkor to‘p uzatish va harakatni muvofiqlashtirish mashqlari natijasida o‘yinchilarning harakat tezligi 18% ga oshdi.

2. **Hujum Samaradorligi:** Tadqiqot davomida sportchilarning hujum jarayonida muvaffaqiyat darajasi 15-20% ga oshgani aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar, jamoaviy o‘yin davomida to‘pni tez va aniq uzatish, shuningdek, raqib himoyasini o‘tkazish qobiliyatini yaxshilash orqali erishildi. Statistik tahlil natijalari ko‘rsatdiki, o‘yinchilarning aniq to‘p uzatishlari 30% ga oshgan.

3. **Psixologik Motivatsiya:** O‘yinchilarning psixologik motivatsiyasini oshirish maqsadida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar natijasida, 80% sportchi o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchining oshgani haqida ma‘lumot berdi. Ushbu natijalar, o‘yinchilarning

psixologik holati va motivatsiyasining hujum jarayonidagi muvaffaqiyatga ta'sirini ko'rsatadi.

**4. Jamoaviy O'yin:** Jamoaviy mashg'ulotlar davomida o'yinchilarning birgalikda harakat qilish qobiliyati va o'zaro muvofiqlik 25% ga yaxshilandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jamoaviy mashg'ulotlar orqali har bir o'yinchining rolini tushunishi va uning jamoa o'yini natijasiga ta'siri oshadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yosh gandbolchilarning hujum jarayonidagi koordinatsion holatini oshirish, nafaqat individual ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki jamoaviy o'yin samaradorligini oshirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida qo'llanilishi va takomillashtirilishi mumkin bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Dastlabki Ko'rsatkichlar</b>	<b>Yakuniy Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'zgarish (%)</b>
Koordinatsion ko'nikmalar	100%	122%	22%
Harakat tezligi	100%	118%	18%
Hujum muvaffaqiyat darajasi	100%	115-120%	15-20%
Aniq to'p uzatish	100%	130%	30%
Jamoaviy harakat muvofiqligi	100%	125%	25%
Psixologik motivatsiya	100%	180%	80%

#### **IZOHLAR:**

- Jadvalda ko'rsatilgan o'zgarishlar yosh gandbolchilarning hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirish uchun qo'llanilgan metodlar va mashg'ulotlar natijalariga asoslangan.
- O'zgarishlar foizlari tadqiqot jarayonida olingan natijalardan kelib chiqqan holda hisoblangan.

## MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari yosh gandbolchilarni hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirishning ahamiyatini ochib beradi. Olingan natijalar, sportchilarning individual va jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan metodlarning samaradorligini ko'rsatadi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarning hujum jarayonidagi muvaffaqiyat darajasi, ularning koordinatsion ko'nikmalari va psixologik motivatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot davomida kuzatilgan 22% ga yaxshilanish, yosh sportchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan innovatsion mashg'ulotlarning muvaffaqiyatini tasdiqlaydi. Alon et al. (2021) va Li va Chen (2020) kabi tadqiqotlarda ko'rsatilganidek, psixologik motivatsiyaning oshishi sportchilarning o'z qobiliyatlariga ishonchini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'yinda muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, jamoaviy o'yinlar davomida har bir o'yinchining o'z rolini tushunishi va jamoa muvofiqligini oshirish muhimdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jamoaviy harakatlarning 25% ga yaxshilanishi, sportchilarning o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bu ko'rsatkichlar yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida jamoa mashg'ulotlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida, o'yinchilarning harakat tezligi va nazorat ko'nikmalarini oshirish orqali hujum samaradorligini 15-20% ga yaxshilash mumkinligini bashorat qilish mumkin. Bu, o'z navbatida, jamoa o'yinining umumiy muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Statistika ko'rsatkichlari, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy metodlarni qo'llashning zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot yosh gandbolchilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali ularning hujum jarayonida koordinatsion holatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari kelajakda yosh

sportchilarni tayyorlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur, chunki sportchilarning muvaffaqiyat darajasi turli omillarga, jumladan, ularning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va o'yin sharoitlariga bog'liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, O. (2020). Yosh sportchilarni tayyorlashda innovatsion usullar. *O'zbekiston Respublikasi Ta'lim va Fan Vazirligi Matbuot xizmati*.
2. Salohiddinov, I. (2019). Yosh sportchilarni tayyorlashda psixologik omillarning o'rni. *O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti jurnali*, 4(2), 23-30.
3. Atoev, A. (2022). Gandbolda sportchilarni tayyorlashda koordinatsion ko'nikmalarni rivojlantirish. *O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport ilmiy-texnik jurnali*, 5(3), 78-85.
4. Ismoilov, D. (2018). Jamoaviy sport o'yinlarida o'yinchilarning muvofiqlik ko'nikmalarini rivojlantirish. *O'zbekiston sport pedagogikasi jurnali*, 2(1), 15-22.
5. Karimov, A. (2020). Sport va jismoniy tarbiya: yosh avlodni tarbiyalashda yangi yondashuvlar. *O'zbekiston Respublikasi sport fanlari jurnali*, 6(4), 67-74.
6. Tashkent, M. (2019). Yosh sportchilarni tayyorlashda innovatsion metodlardan foydalanish. *O'zbekiston ilm-fan va texnologiyalar jurnali*, 5(3), 90-96.
7. Alon, U., & Chtourou, H. (2021). The influence of coordination training on handball players' offensive performance. *Journal of Sports Science & Medicine*, 20(3), 575-586.
8. Li, K., & Chen, J. (2020). The impact of psychological motivation on sports performance in youth athletes. *International Journal of Sports Psychology*, 51(2), 223-238.
9. Dyer, B., & Ogden, J. (2019). Effectiveness of innovative training methods in enhancing coordination skills in team sports. *Sports Coaching Review*, 7(4), 349-360.
10. International Handball Federation (IHF). (2021). Statistical overview of handball participation worldwide. Retrieved from [www.ihf.info](http://www.ihf.info)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048558>

## HISLAR TAHLILINING UMUMIY XUSUSIYATLARI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI

**Sitora Mirzoxid qizi Mamasoyilova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

[sitoramamasoyilova@gmail.com](mailto:sitoramamasoyilova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola sentiment analiz yoki hislar tahlilining ahamiyati, vazifalari va amaliyotda qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi. Sentiment analiz tabiiy tilni qayta ishlashning bir yo'nalishi bo'lib, unda matnlardagi hislar subyektiv ma'lumot sifatida ajratiladi va tasniflanadi. Hissiy tahlil jarayoni matnni qayta ishlash, hislarni ijobiy, salbiy yoki neytral tarzda tasniflash, shuningdek, kontekstual tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Sentiment analiz korxonalar, sog'liqni saqlash tizimi va siyosiy tahlil uchun muhim vosita hisoblanadi, u mijozlar fikr-mulohazalarini tahlil qilish, qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashda keng qo'llaniladi. Shuningdek, bu tizim kompaniyalarga bozor dinamikasini tushunish va raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *hissiy tahlil (sentiment analiz), subyektiv fikr, sentiment analiz xususiyatlari.*

### ABSTRACT

*This article discusses the significance, functions, and applications of sentiment analysis. Sentiment analysis, a branch of natural language processing, involves extracting and categorizing emotions within texts as subjective data. The process of sentiment analysis includes stages such as text preprocessing, classifying sentiments as positive, negative, or neutral, and conducting contextual analysis. Sentiment analysis serves as a crucial tool for businesses, healthcare systems, and political analysis, extensively employed to assess customer feedback and improve decision-making processes. Furthermore, this system aids companies in comprehending market dynamics and developing competitive strategies.*

**Key words:** *sentiment analysis, subjective opinion, features of sentiment analysis.*

## KIRISH

Hislar kishilar muloqoti jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Fikrlar, uni qanday ifodalash, ularning qaror qabul qilishdagi ta'siri borasida professor B. Liu shunday deydi: "Fikrlar deyarli barcha insonlar faoliyatining markazida turadi va bizning xatti-harakatlarimizga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi. Bizning e'tiqodlarimiz va haqiqatni qabul qilishimiz, shuningdek, qilayotgan tanlovlarimiz, ko'p jihatdan, boshqalar dunyoni qanday ko'rishi va baholashiga qarab o'zgaradi. Shuning uchun qaror qabul qilishimiz kerak bo'lganda biz ko'pincha boshqa odamlarning fikrlariga qaraymiz. Bu nafaqat kishilar, balki tashkilotlar uchun ham ishlaydi". Olim yana bu sohada kompyuterlar fikrlarni raqamli tarzda ma'lumot sifatida saqlashni osonlashtirgani, ommalashtirgani borasida ham to'xtalib o'tadi.

## ASOSIY QISM

Sentiment analiz (yoki hislar tahlili) tabiiy tilni qayta ishlashning ichki yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu soha matnda ifodalangan hislarni, asosan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan veb sahifada yozib qoldirilgan izoh, fikrlarni hissiy jihatdan tahlil qilishni o'z ichiga qamrab oladi, boshqacha qilib aytganda, hissiy tahlil tabiiy tilga ishlov berishning (NLP) matnda ifodalangan hislarni avtomatik aniqlash va kategoriyaga ajratish bilan shug'ullanuvchi sohasi hisoblanadi.

Hislarni tahlil qilish matnda ifodalangan his-tuyg'u yoki fikrni aniqlash uchun subyektiv ma'lumotlarni olish jarayonini qamrab oladi. Bu bir nechta asosiy xususiyatlarning yig'indisidan iboratdir.


Birinchiidan, matnni qayta ishlash hissiy tahlil uchun asosiy qadam hisoblanadi. Bu tokenizatsiya kabi vazifalarni o'z ichiga oladi, bunda matn so'z yoki ibora kabi kichik birliklarga bo'linadi va matn kerakli formatga aylantirish orqali standartlashtiradi, bu esa keyingi tahlilda yordam beradi.

Ikkinchiidan, hislarni tasniflash muhim ahamiyatga ega. Mashinali o'qitish (machine learning) modellari yoki qoidalarga asoslangan yondashuvlar odatda matndagi hislarini ijobiy, salbiy yoki neytral deb tasniflash uchun qo'llaniladi. Ushbu



modellar kerakli birliklarni tanish va hislarni to'g'ri topish uchun ma'lumotlar bazasida yig'iladi.

Bundan tashqari, tasniflash hislarni tahlil qilishda hal qiluvchi narsadir. Hislar tasniflangandan so'ng, natijalarni kontekst bo'yicha talqin qilish til birliklarini ajratib olishda juda muhimdir. Tildagi kinoya, qochirim, ibora, tasviriy ifoda kabi tasviriy va qotib qolgan birliklarni alohida ajratib olgan holda talqin etish hislarni aniq tahlil qilish imkoniyatini beradi.



### 1-chizma. Hissiy tahlil xususiyatlari.

Hissiy tahlil vazifalari turlicha bo'lib, ularning barchasi aniq natijaga asoslanadi.

Hissiy tahlil o'z oldiga:

- 1) hislarni aniqlash (bunda hissiy birliklar ijobiy, salbiy yoki neytral kabi baholanadi);
- 2) hissiy darajani belgilash (hislarning kuchini aniqlanadi, bunda ijobiy va salbiy hislarning kuchli yoki zaiflik darajasini belgilab olinadi);
- 3) hissiy birliklarni kontekstda tahlil qilish (hislarni kontekstga qarab baholanadi, so'z, so'z birikmasi, iboralar orasidagi bog'liqlik o'rganiladi) singari vazifalarni qo'ygan holda amaliyotda natijalarga erishadi.

Sentiment tahlil ijtimoiy mediya monitoringi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi, bu korxonalariga jamoatchilik fikrini, o'zgarishlarni aniqlash va mijozlar talab, istaklari yoki shikoyatlariga zudlik bilan javob berish, yechim axtarish kabi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Bundan tashqari, sentiment analiz mijozlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Mijozlar tomonidan onlayn platformalarda


qoldirilgan sharhlar yoki so'rovlarni tahlil qilish yordamida korxonalar o'zgartirish kiritishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashi, mijozlarning xizmat sifatidan qoniqish darajasini kuzatishi va o'z mijozlarining talablarini samarali qondirish uchun ularning xohish-istaklari bilan ularga bera oladigan takliflarida moslik yaratish yo'lida foydalanishlari mumkin.

Umuman, hislarni tahlil qilish tizimi turli sohalarda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi tashkilotlarga jamoatchilik kayfiyatini tushunish imkonini beradi. Hislarni tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlardan foydalanib marketing strategiyalarini optimallashtirish va xaridorning korxonaga brendiga ishonchini kuchaytirish mumkin, natijada bugungi dinamik bozor manzarasida umumiy muvaffaqiyat va raqobatbardoshlikka erishiladi.

Matnda ifodalangan hislarni tahlil qilish tizimi vazifasi faqatgina bu bilan cheklanib qolmaydi. U yana matn hislarga tayanib xulosalanganda va tasniflanganda ularni hislarga asoslanib ajratishda kerakli omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari jahon veb tarmog'i bugungi kunda xarid qilingan oziq-ovqat maxsulotlari, kitoblar, texnik jihozlar; mehmonxonalar, ko'ngil ochar maskanlar, umumiy ovqatlanish joylari va ularda ko'rsatilgan xizmat sifati haqida xaridorlar hamda iste'molchilar tomonidan yozib qoldirilgan shaxsiy fikrlar omma bilan bo'lishiladigan keng platformaga aylangan. Hozirda onlayn tarmoq 5.3 milliarddan ortiq faol tarmoq foydalanuvchilarini qamrab olgan. Sentiment analiz esa shu tarmoq foydalanuvchilari qoldirgan subyektiv fikr, izohlarda ifodalanuvchi hislarni tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir. Negaki hislar tahlili orqali tashkilotlar, xaridorlar yoki sayyohlar mahsulotlar xaridi, maishiy xizmat ko'rsatish sohasidan kelgusida qaysi tanlovni amalga oshirishi kerakligi borasida oldindan qaror qabul qila oladi, bu esa o'z navbatida:

- 1) vaqtni tejaydi;
- 2) iste'mol mahsulotlarining sifatini oshiradi;
- 3) raqobatni ta'minlaydi.



**2-chizma. Hissiy tahlilning vazifasi va ahamiyati.**

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, mamlakat ichida sodir bo'lgan va bo'ladigan voqealarga nisbatan odamlarning ularga nisbatan shaxsiy munosabatini tahlil qilish sotsiologiya, statistika kabi sohalarni aniq fakt, shu bilan birgalikda, voqeliklarga nisbatan xolis bildirilgan munosabatlar xulosasi bilan ta'minlaydi, yana shuni aytish mumkinki, sentiment analiz siyosiy partiyalar va ularga qo'yiluvchi nomzodlar tanlovi haqida ushbu siyosatga aloqador jarayonda jamoatchilik fikrini tushunish uchun siyosiy tahlilda qo'llanilishi mumkin. Hislarni tahlil qilish, shuningdek, iqtisodiy va moliyaviy yangiliklar, ijtimoiy tarmoqda qo'yilgan postlar orqali aksiya bahosini oldindan taxmin qilish, investitsiya imkoniyatlarini oldindan aniqlashda ishlatilishi mumkin.

Sog'liqni saqlash tizimida tajriba almashish, tibbiy ma'lumotlarni izlash vositasi sifatida onlayn platformalarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani ham bu tizim uchun hissiy tahlil amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Telegram va YouTube platformalari bugungi davrda foydalanuvchilar o'z fikrlarini qoldirishlari va tibbiy xizmatlar, davolash usullari, sog'liqni saqlash tashkilotlari haqida fikr-mulohazalarini bildirishlari uchun asosiy manbaga aylandi. Foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentning ko'payishi bilan ushbu tibbiy sharhlarda ifodalangan hislarni tushunish sog'liqni saqlash sohasida manfaatdor tomonlar uchun bemorlarning tajribalari va ularga bo'lgan munosabatlari haqida tushunchaga ega bo'lishida juda muhimdir. Telegram va YouTube'dagi tibbiy sharhlar

bo'yicha hislarni tahlil qilish bemorga yo'naltirilgan tibbiy yordam jarayonidagi real vaziyat davomida o'zgarib boradi, tahlil tibbiyot xodimlari, foydalanuvchilarga bemorlarning fikrida ifodalangan hissiy birliklar orqali ularning xohishlarini bevosita tushunish imkonini beradi va sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ilgari suradi. Bu tarmoqlarda mijozlar tomonidan qoldirilgan sharhlar yangilanib boruvchi hamda keng jamoatni qamrab olishi tufayli tahlil qilishda statistik natijalar olish, sohada siyosiy, iqtisodiy jihatdan kerakli, samarali qarorlar qabul qilishda muhim manba bo'la oladi.

Matnda ifodalanuvchi hislarni tahlil qilish umumiy qilib aytganda, matnda ifodalangan hislar yoki fikrni tushunish uchun matndan subyektiv ma'lumotlarni olishdan iborat. Uning xususiyatlariga matnni qayta ishlash, hislarni tasniflash va ularni izohlash kiradi. Vazifalari ijtimoiy mediya monitoringi, mijozlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish va undan foydalangan holda korxonada brendini takomillashtirishdir. Ahamiyati jamoatchilik fikrini tushunish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilash bilan izohlanadi.

## XULOSA

Hissiy tahlil turli sohalarda ijtimoiy mediya, korporativ boshqaruv va sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarda jamoatchilik fikrini o'rganish va unga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Hislar tahlili yordamida kompaniyalar mijozlarning fikr-mulohazalarini kuzatish, xizmat sifatini oshirish va brend ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bu tahlil sog'liqni saqlash sohasida bemorlarning his-tuyg'ularini tushunishda ham yordam beradi, natijada tibbiy xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Sentiment analiz tashkilot va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni kuchaytirib, qarorlarni yanada samarali va tezkor qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Liu. B. Sentiment Analysis and Opinion Mining, Morgan&Claypool Publishers, May 2012, 4 pp.
2. Mamasoyilova, S. (2024) O‘zbek tilida hislarni ifodalovchi birliklar va ularning ahamiyati. *Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechimlar va istiqbollar*.
3. [medium.com/analytics-vidhya/nlp-getting-started-with-sentiment-analysis - 126fcd61cc4a](https://medium.com/analytics-vidhya/nlp-getting-started-with-sentiment-analysis-126fcd61cc4a)
4. Sentiment Analysis in Health and Well-Being: Systematic Review Anastazia Zunic, MSc; Pdraig Corcoran, PhD; Irena Spasic, PhD School of Computer Science & Informatics, Cardiff University, Cardiff, United Kingdom
5. [www.statista.com](https://www.statista.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048562>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FE‘L SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH

**Ne‘matova Dilnoza**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi  
2-kurs talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

*Annotatsiya.* Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlari bilan tanishish. So‘z turkumlaridan nutqda to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish. Boshlang‘ich ta‘limning ona tili darslarida fe‘l so‘z turkumini o‘rganishdagi metodlar bilan bo‘lishish.

**Kalit so‘zlar:** Fe‘l so‘z turkumi, ko‘nikma, tuslanish, so‘z yasash.

*Аннотация.* Знакомство с группами слов в начальных классах. Обучение правильному употреблению словосочетаний в речи. Обмен методами изучения глагольных фраз в классах начального образования на родном языке.

**Ключевые слова:** Глагольная фраза, умение, произношение, словообразование.

*Abstract.* Getting to know word groups in elementary grades. Teaching the correct use of phrases in speech. Sharing methods for learning verb phrase in mother tongue classes of primary education.

**Key words:** Verb phrase, skill, pronunciation, word formation.

Boshlang'ich sinflarga so'z turkumini o'rgatishda o'qituvchining roli muhimdir. Boshlang'ich sinflarda nutqni to'g'ri shakllanishida, nutqining ravon va bexato bo'lishida so'z turkumlarining ahamiyati katta. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatish va o'rganish jarayonidagi metodlar haqida.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish katta mahorat talab etadi. Ushbu sinflar davomida fe'l so'z turkumining bo'lishli-bo'lishsizligi, shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqida ko'nikma hosil qilish.

O'quvchilarni fe'l zamonlarini ongli qo'llashga o'rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe'l zamonlarini aniqlash va biror fe'l formasidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe'l zamonini o'zgartirish, fe'llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi.

Dasturga ko'ra, 4-sinfda fe'llarda shaxs-son haqida tushuncha beriladi. O'quvchilarda o'zbek tilida 3shaxs: so'zlovchi, tinglovchi, o'zga mavjudligi haqida dastlabki ko'nikma "Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi" va "Kishilik olmoshlari" mavzulari o'rganilayotganda hosil qilingan. "Fe'llarda shaxs-son" mavzusi shu ko'nikmalar asosida tushuntiriladi.

Fe'lning dastlabki bosqichlari 1-sinfda o'tiladi. 1-sinf darsligida fe'l so'z turkumining so'rog'i, qanday vazifalarni bajarishi haqida tanishib chiqiladi. 1-sinflarda fe'l ustida ishlash mashqlarini "Alifbe"dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi.

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar, harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi.

1-sinfda morfologik so'roq so'z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O'quvchilarni so'zga so'roq berishga o'qituvchi bergan so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni tanlashga, so'zni so'roqqa mos ravishda o'rgatishga (nima qildi? o'qidi, nima qilamiz? o'qiymiz, nima qilmoqchi? o'qimoqchi) kabi o'rgatiladi.

3-sinfda fe'l soʻz turkumini shakllantirish, boʻlishli va boʻlishsiz fe'llarning ma'nosi va shaklga qarab farqlash koʻnikmasini hosil qilish, boʻlishsizlik qoʻshimchasining talaffuzi va imlosini oʻrgatish hisoblanadi.

Boshlangʻich sinfning ushbu sinflarida soʻz turkumlari ichida murakkab boʻlgan "Fe'l" soʻz turkumi haqida oʻquvchilar onggida tasavvur va bilishni shakllantirishdan iborat. Fe'l soʻz turkumi boshqa soʻz turkumlaridan farq qilganligi bois uni oʻquvchilar onggida qiyinchilik tugʻdirmasligi uchun turli xildagi metod va koʻrgazmalardan foydalanib tushuntirishimiz lozim. Fe'lning lingvistik xususiyatlari biroz murakkab, shuning uchun boshlangʻich sinf oʻquvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarini hal qilishda qanchalik zarurligini hisobga olinadi.

Oʻquvchilarga soʻz turkumlarini oʻrgatishda, ta'limiy oʻyinlardan bilimlarni mustahkanlash uchungina emas, balki ta'lim sifatini yaxshilash uchun ham foydalaniladi. Ta'limiy oʻyinlarni oʻz oʻrnida va dars mavzusiga mos ravishda olib borish zarur. Bu oʻyinlarni mavzu tushuntirilgandan keyin uni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Bunga misol qilib, 3-va 4-sinflardagi " Fe'l soʻz turkumi" mavzusini oʻrganish darslarida qoʻllaniladigan ta'limiy oʻyinlardan keltirib oʻtamiz.

### **Oʻyinning ikkinchi varianti**

Oʻquvchilarda soʻzning lugʻaviy ma'nosiga qarab ma'lum turlarga ajratish koʻnikmasini shakllantirish uchun ushbu oʻyin oʻtkaziladi. Oʻqituvchi sinfning oldingi qismidagi stolga 20-25ta kartochka yozib qoʻyadi. Oʻquvchilardan ketma-ketlikda doskaga chiqariladi. Ular doskaga berilgan kartochkalardan birini tanlaydi. 1. Harakatga oid soʻzlar 2. Holatga oid soʻzlar.

Bunda oʻquvchilar kartochkalarni tortib, ulardagi soʻzlar bilan tanishib oʻzlariga berilgan topshiriqqa mos soʻzlarni tanlaydilar. Bunday oʻyinlar oʻquvchilarda soʻzlarning asosiy belgisini anglashga yordam beradi.

Darslardagi turli xil oʻyinlardan foydalanish, darsning samaradorligini va noodatiylik boʻlishini ta'minlaydi.



### *"G'alaba cho'qqisi" o'yini*

Bu o'yinni o'tkazish uchun 2 o'quvchi doskaga chiqariladi. Ularning har biriga bittadan unumli so'z yasovchi qo'shimcha beriladi. O'quvchilarning berilgan yasovchi qo'shimcha yordamida belgilangan miqdorda so'z tuzishi va doskaga yozishi talab etiladi. Bu o'yinni ot, sifat, fe'l so'z turkumlari o'tilganda uyishtirish mumkin.

Shundan ko'rinadiki, har bir so'z turkumini o'rganayotgan o'quvchi uchun darslarning qanday olib borilishi va nimalardan foydalanishi juda muhim. O'quvchilarda so'z turkumini yaxshi o'zlashtirishiga ma'lum ta'limiy maqsadga qaratilgan o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar ta'limiy o'yinlarni bajarganda darslarni o'zlashtirish sifati ham biroz bo'lsada oshadi. Ushbu maqola davomida biz fe'l so'z turkumini o'rgatish va darsliklardagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish bilan tanishib chiqdik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. K. Qosimova/ S. Matchonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili o'qitish metodikasi. 2009. 268- bet.
2. Abdurahmonova M. Didaktik o'yinlarning ta'limiy ahamiyati// Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi avlodini tayyorlash.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari.t.: " O'qituvchi", 1992.
4. Internet resursi(kitob.uz).

**TABLE OF CONTENTS**

<b>Sr. No.</b>	<b>Paper/ Author</b>
<b>1</b>	<b>Ruzmetova, D. A., &amp; Sultanova, I. B. qizi . (2024). BUGUNGI KUNDA NUTQ BUZILISHI SABABLARI VA ULARNING OLDINI OLISH USULLARI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 4–7. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003704">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003704</a></b>
<b>2</b>	<b>Shamsudinova, I., Eshdavlatova, L., &amp; Ko‘charova, N. (2024). QADIMGI TURKIY TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 8–10. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003721">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003721</a></b>
<b>3</b>	<b>Shamsudinova, I., Ravshanova, T., &amp; Abdullayeva, S. (2024). TURKIY TILLAR LEKSIKASI. (BIR NECHTA TURKIY TILLAR MISOLIDA). GOLDEN BRAIN, 2(19), 11–14. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003734">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003734</a></b>
<b>4</b>	<b>Shamsudinova, I., Fozilova, G., &amp; Eshmurodova, D. (2024). TURKIY TILLAR GRAMMATIK QURILISHINING TARIXIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 15–17. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003742">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003742</a></b>
<b>5</b>	<b>Yaqubova, S. R. (2024). O'RTA OIYODA MATBAA TARIXINING O'RGANILISHI. XIVADAGI BIRINCHI TOSHBOSMA TARIXI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 18–22. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003754">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003754</a></b>
<b>6</b>	<b>Shamsudinova, I., Jo'rayeva, M. S. qizi ., &amp; Xongeldiyeva, S. S. qizi . (2024). HOZIRGI TURKIY TILLARDA KELISHIK KATEGORIYASI (O'ZBEK, QORAQALPOQ, QOZOQ, QIRG'IZ TILLARI MISOLIDA). GOLDEN BRAIN, 2(19), 23–26. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003770">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003770</a></b>
<b>7</b>	<b>Tulishova, G. R. (2024). OZOD SHARAFIDDINOV: YORQIN ISTE'DOD VA SERMAHSUL IJOD. GOLDEN BRAIN, 2(19), 27–32. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.14003778">https://doi.org/10.5281/zenodo.14003778</a></b>

8

Ashirmatova, N. B. qizi . (2024). BIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH: YAPONIYA TAJRIBASI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 33–39.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14003794>

9

Ashirmatova, N. B. qizi ., & Bo'ronov, N. S. (2024). BIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MUAMMOLARI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 40–46. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003800>

10

Zayniddinova, R. S. qizi . (2024). THE GLOBAL DOMINANCE OF THE ENGLISH LANGUAGE: IMPACT ON NATIVE LANGUAGES AND SOCIETIES. GOLDEN BRAIN, 2(19), 47–50.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14003816>

11

Shamsudinova, I., Ismoilova, S., & Karomatova, P. (2024). QADIMGI TURKIY TILLARDA EGALIK KATEGORIYASI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 51–54. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003824>

12

Hasanova, S., & Umurzoqov, B. (2024). RIZOIY ASARINING NOMLANISHI XUSUSIDA. GOLDEN BRAIN, 2(19), 55–60.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14003858>

13

Xayriddinov, S. B., & Ashirov, E. B. o'g'li . (2024). ONLAYN TA'LIM. GOLDEN BRAIN, 2(19), 61–65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003871>

14

Xayriddinov, S. B., & Omonova, A. A. qizi . (2024). AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 66–70.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14004381>

15

Suvonov, B. I. o'g'li ., Jamilova, S. S. qizi ., & Farmonova, M. K. qizi . (2024). BOSHQARISH NAZARIYASI FANINING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 71–75. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004398>

16

Husanov, G. U. (2024). FUTBOLDAGI O'YIN TAKTIKASI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 76–80. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004744>

17

Husanov, G. U. (2024). FUTBOLNING KELIB CHIQISHI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 81–85. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004765>

18

Burxanov, A. A. (2024). BADMINTONNING PAYDO BO'LISHI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 86–90. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004777>

19

Burxanov, A. A. (2024). BASKETBOL O'YINI QOIDASI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 91–95. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004790>

20

Amirkulov, O. I. (2024). BASKETBOLDA O'YIN TAKTIKASI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 96–100. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1400479>

21

Sultonov, V. M. (2024). OLIY O'QUV YURTLARIDA JISMONIY TARBIYA FANINING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 101–105. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004801>

22

Sultonov, V. M. (2024). O'ZBEKISTONDA BASKETBOLNING RIVOJLANISHI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 106–110. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004819>

23

Yuldasheva, D. M., & Matkarimova, S. M. (2024). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIZAYNDAN FOYDALANISH METODIKASI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 111–116. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004835>

24

Allanova, M. J. qizi ., Chorshanbiyeva, N. K., & Ro'zibayiva, K. Q. qizi . (2024). INDO-YEVROPA TILLARINING QIYOSIY TAHLILI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 117–121. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004856>

25

Gulamova, L. H. (2024). O'SMIRLARDA HUQUQIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 122–126. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004884>

26

Mamadiyeva, B., & Hamrayev, M. A. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAP MAVZUSINING O'QITILISH USLUBIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 127–129. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004888>

27

Asqarov, A. R. o'g'li . (2024). MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 130–134. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004906>

28

Asqarov, A. R. o'g'li ., & Meliboyev, D. H. o . 'g . 'li . (2024). TA'LIM MUASSASALARIDA O'SMIRLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 135–138. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004914>

29

Asqarov, A. R. o'g'li ., & Tojimatov, J. I. o'g'li . (2024). RAQAMLI JAMIYATDA O'QITUVCHI O'QUVCHI MUNOSABATLARINING IJTIMOIIY KUTILMALARI MUAMMOSINI O'RGANISH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 139–142. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004923>

30

Asqarov, A. R. o'g'li ., & Xomidov, A. A. o'g'li . (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TAFAKKUR JARAYONINI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK METODLARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 143–146. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004925>

31

Низамитдинова, А. Э., & Миртурсунова, Ю. А. (2024). СОПОСТАВЛЕНИЕ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК. GOLDEN BRAIN, 2(19), 147–153. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004932>

32

Imomova, N. P. (2024). INNOVATIVE APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE. GOLDEN BRAIN, 2(19), 154–158. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004936>

33

Arslonbekova, R. A. (2024). DAVLAT UNIVERSITETIDA DARS BERISH BO'YICHA KENG QAMROVLI FIKR. GOLDEN BRAIN, 2(19), 159–164. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048401>

34

Исмайлова, Р. (2024). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКДАН ЖАБРЛАНГАН ШАХСЛАРДА ИЧКИ ЗИДДИЯТ МУАММОСИ. GOLDEN BRAIN, 2(19), 165–174. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048409>

35

Sattorova, D. G. (2024). OUR NATIONAL VALUES IN THE FORM OF A NATIONAL IDEAL. GOLDEN BRAIN, 2(19), 175–177. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048434>

36

Худойбергенова, П. Т. (2024). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ. GOLDEN BRAIN, 2(19), 178–181. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048444>

37

Ibodillayev, D. A. o'g'li . (2024). EPC CONTRACTS: PROSPECTS FOR CONCLUSION IN UZBEKISTAN. GOLDEN BRAIN, 2(19), 182–186. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048477>

38

Kayumova, M. U. (2024). THE INFLUENCE OF BACKGROUND KNOWLEDGE ON READING COMPREHENSION. GOLDEN BRAIN, 2(19), 187–193. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048489>

39

Xalillayeva, M. J. qizi ., & Hamrayev, M. A. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 194–198. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048503>

40

Boymuminova, M. B. qizi . (2024). RAQAMLI O'YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR AQLIY RIVOJLANISHIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 199–202. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048511>

41

Ниязова, М. И. (2024). СРЕДНЕВЕКОВЫЕ КОЛЬЦА ИЗ ВАРАХШИ. GOLDEN BRAIN, 2(19), 203–207. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048520>

42

**Burxonov, F. R. o'g'li ., & Usanova, D. X. qizi . (2024). YOSH GANDBOLCHILARNI HUJUM JARAYONIDA KORDINATSION HOLATINI OSHIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 208–214.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14048552>

43

**Mamasoyilova, S. M. qizi . (2024). HISLAR TAHLILINING UMUMIY XUSUSIYATLARI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(19), 215–221.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14048558>

44

**Ne'matova, D., & Hamrayev, M. A. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGATISH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 222–225.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14048562>